

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI  
FILOLOGIYA FAKULTETI  
«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI**

**“O'RXUN-ENASOY OBIDALARI LUG'AVIY  
TARKIBINING TARIXIY-QIYOSIY TADQIQI”**

**mavzuidagi**

**BITIRUV – MALAKAVIY ISHI**

Bajardi: «o'zbek filologiyasi» ta`lim  
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi  
Allambergenova Muqaddas

---

**ILMIY RAHBAR:**

dots. F.Bobojonov

---

**Nukus- 2014**

# **O’RXUN-ENASOY OBIDALARI LUG’AVIY TARKIBINING TARIXIY-QIYOSIY TADQIQI**

**Reja:**

## **ASOSLAMA**

## **KIRISH**

- A. Qadimgi turkiy tilning o’ziga xosliklari
- B. O’rxun-Enasoy obidalarining tarixiy qimmati va tadqiqi xususida
- C. Kultegin va Bilgaxoqon bitiglarining boshlamalari to’g’risida

## **ASOSIY QISM:**

### **I. BOB O’RXUN-ENASOY OBIDALARI LUG’AVIY BIRLIKЛАRIDAGI GRAMMATIK SHAKLLAR TADRIJI**

- 1.1. Ismlar taraqqiyoti
- 1.2. Fe`llar taraqqiyoti
- 1.3. Yordamchi so’zlar taraqqiyoti
- 1.4. Bitigtoshlarga xitoychadan o’zlashgan so’zlar

### **II. BOB LUG’AVIY BIRLIKЛARNING MAVZU GURUHLARI**

- 2.1. Toshbitiglarda maishiy leksikaga oid so’zlar guruhi
- 2.2. Bitigtoshlarda harbiy sohaga oid so’zlarning qo’llanilishi
- 2.3. O’rxun-Enasoy bitiktoshlarida zoonimlar
- 2.4. Qadimgi turkiy obidalarda etnonimlar
- 2.5. Bitigtoshlarda ishlatilgan toponimlar

## **XULOSA**

## ASOSLAMA

**Mavzuning dolzarbliji.** Biz yashayotgan dunyo eski kitoblarda bitilganidek chindan ham “ko’hna”dir. Umuman, Turkiston tuprog’i, xususan, bugun biz yashab turgan O’zbekiston ko’hna dunyoning inson zoti vujudga kelgan eng qadim maskanlaridandir.

O’zbeklarning millat sifatida shakllanishi uzoq tarixga ega. O’zbeklar qadimgi turkiylarning avlodlaridir. Turkiylar keyinchalik mustaqil millat va xalq sifatida shakllangan o’zbek, qoraqalpoq, qirg’iz, turkman, uyg’ur, ozarbayjon kabi xalqlarning ajdodlaridir. Shuning uchun ham qadimgi turkiylar qoldirgan ulkan madaniy va adabiy meros bu xalqlarning mushtarak yodgorliklari hisoblanadi. Bu mushtarak yodgorliklar, eng avvalo, O’rxun –Enasoy toshbitiglari bilan bog’liq deyish mumkin. Toshbitiglarni o’rganish orqali nafaqat qadim xalqlarning madaniy merosini, balki, ajdodlarimizning turmush-tarzini, dunyoqarashi va urf-odatlarini ham o’rganamiz, ham o’zlashtiramiz. Mushtarak yodgorliklarda xalqimizga xos milliy g’oyalar, milliy ruh va vatanparvarlik yaqqol aks etgan. Buning asosida yosh avlod qalbiga milliy qadriyatlar: an’ana va haqiqatlar, vatan tuyg’usi, e’tiqod kabi yuksak tushunchalar singdiriladi. Shu jihatdan, yurtboshimiz I.A. Karimov “**yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo’lishi zarur**” - deya milliylik, umuminsoniylik haqida to’g’ri qayd etib o’tgan edilar<sup>1</sup>. Shu ma’noda mushtarak yodgorliklar tadqiqi masalasi bugungi kunda ko’pchilikni qiziqtiradigan mavzularga aylanmoqda.

Toshbitiglarni o’rganish uchun qator qardosh xalqlarning tili, urf-odati bilan tanish bo’lish bilan birga, bir necha boshqa asarlarni, adabiy meroslarni ham sinchiklab kuzatish talab qilinadi. Tarixga murojaat qilish hamisha ham dolzARB mavzu sifatida qaraladi, tarixiy obidalarni qanday va qay tariqa o’rganish, hamda uning aynan qaysi jihatini o’rganish masalasi esa tadqiqot ishining yanada

---

<sup>1</sup> Karimov. I. A “Inson baxt uchun tug’iladi” –T: Sharq, 2001.-55-b

dolzarbligini belgilaydi. Shu ma'noda tadqiqotimizni tarixiy obidalar bo'lgan, turkiy xalqlarning mushtarak yodgorliklari O'rxun-Enasoy toshbitiglarini lug'aviy jihatdan bugungi kun leksik qatlamiga qiyoslab o'rganishga harakat qildik. Ilmiy ishimizni aynan tarixiy obidalarni tubdan, atroflicha o'rganishga, ularning lug'aviy qatlamini tadqiq qilishga bag'ishladik. Adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuvini nazariy jihatdan asoslashga hamda bitiglar orqali ularni ochib berishga, shevalarning qadimgi turkiy davrda me'yor sifatida qaralgani kabi masalalarga atroflicha to'xtalishga harakat qildik.

**Mavzuning o'rganilishi.** Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi keyingi yillar davomida ko'plab yutuqlarga erishmoqda. Tadqiqot ishimizda toshbitiglardagi sarkardalar tiliga xos bo'lgan lug'aviy birliklarni qiyoslash asosida o'rganib, ularning nutqiylarini mahorati, o'sha davr til ko'rinishi, turli so'z turkumlarining tarixiy tadriji kabi masalalarni muhim jihat sifatida ko'rsatish mumkin. Bunday xususiyatlar yodgorliklar tili haqidagi qarashlarni yanada mustahkamlashga, toshbitiglar o'rnatilgan davrlarda turkiy xalqlarning yashash tarzi va aloqa-almashinuv munosabatlari haqidagi qarashlarni mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Toshbitiglarning o'rganilishi uzoq va qiziqarli tarixga ega. Qomusiy olim M.Koshg'ariy "Devoni lug'atit-turk" asarida turklarning alohida yozuvi bo'lgan degan fikrlarni keltiradi hamda uyg'urlar haqida gapiroayotib, ularda 24 harfdan iborat alifbo mavjudligini qayd qiladi, shuningdek, uyg'ur va xitoy xalqida ish qog'ozlarini yozishda foydalaniladigan yana bir yozuv mavjudligi, bu yozuvni uyg'ur, xitoy xalqi hamda shaharlik aholigina o'qiy olishi haqida ma'lumotlar beradi<sup>2</sup>. S.G.Klyashtorniy fikricha, bu yerda Mahmud Koshg'ariy runiy yozuvlar haqida aytmoqda, chunki, eng so'nggi mazkur xatli esdaliklar Turfon nomi bilan bog'liq bo'lib, eng dastlabki uyg'ur yozuvidagi huquqiy hujjatlar ham Turfon va Donxuandan topilganligini hamda ularning ko'pchiligi runiy yozuvlarda yozilganligini ma'lum qiladi.

---

<sup>2</sup>Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'atit-turk" Ankara 1939-1941, I-III qismlar.

Shuningdek, S.G.Klyashtorniy M.Koshg’ariydan yuz yil keyin yozgan Faxr ad-din Muborakshoh Marvarudiyning runiy xati haqida gapirib, uni “tokuz-❑guz” va “uyg’ur xati” deb yuritilganligini bayon qiladi<sup>33</sup>.

Tarixchi va davlat arbobi Alovuddin Ota-Malik Muhammad Juvayniy o’zining “Tarixi jahonkushoy” asarida, sayohati davomini, o’z kuzatuvlarini, Sharqiy Osiyo davlatlarini tasvirlaydi. Juvayniy Qoraqurum va qadimgi uyg’ur poytaxti Ordubaliqni tasvirlab shunday deydi: “*Ordubaliq saroyining darvozasi qoldiqlariga qarama-qarshi, toshlarga o’yilib yozilgan yozuvlar topilgan. Xoqon (Munka xoqon 1251-1259) boshqargan davrda, davom qiladi Juvayniy, bu toshlar yerdan qazib olingan, ularning tagida o’yilgan izlar bo’lib, unda yozuv mavjud bo’lgan katta tosh yotgan edi. Mazkur yozuvlarni o’qiy oladigan kishini topish buyurildi, hech kim ularni o’qiyolmadi. Xitoydan kamlar ya’ni shamanlar deb nomlangan odamlarni yig’dilar, ulargagina toshlardagi yozuvlar tanish bo’lishi mumkin edi* ”- deb qayd qiladi<sup>4</sup>. Runiy yozuvlar turli nomlar bilan yuritilib kelingan. Ularni gotlar, yunon-gotlar, indo-gotlar nomlari bilan ham yuritishdi, bunga bitiglarning to’liq o’rganilmaganligi sabab bo’lgan. Fransuz turkologi Abel’ Remyuza (1788-1832) aniq fikrni keltiradi: “yozuvlar runlar bilan o’xhashligi yolg’on bo’lishi ham mumkin, chunki ular turklar yashagan qadimiy yerlarda joylashgan”. Bunga qarshi G.I. Spasskiy “Janubiy Sibirda turklar yashaganligi haqida hech qanday ma’lumot yo’q, aksincha ular mazkur yerlarda yangi aholi hisoblanishgan” (Kononov.N.A “История изучения” )-deb qayd qiladi. Uning fikricha yozuvlar mo’g’ul yoki qolmiq yozuvlari bo’lishi mumkin ekan, keyinchalik G.I.Spasskiy yozuvlarning kelib chiqishini slavyan yozuvlari bilan bog’lagan.

Nikolay Mixaylovich Yadrinsev (1842-1894), I.S.Bogolubskiy va A.V.Adrianovlar topgan hamda Minusinsk muzeyida saqlanayotgan runiy yozuvlar haqida gapirganda, ularni turklarga tegishli ekanligini aytib o’tadi.

<sup>3</sup> Klyashtorniy. S.G “Епоха М.Кашкарского” –ST-1972, 21-bet

<sup>4</sup> V.V.Radlov “К вопросы об уйгурех” AN-1893, 56-57 betlar

Keyinchalik N.M.Yadrinsev, Kosho-saydamdan topilgan, Kultegin va Mog'ilyon xonga bag'ishlangan bitiglar haqida "*Bunday eski mozorlar va esdaliklar faqat turklar yoki uyg'urlarda yoziladi*"<sup>5</sup> -deydi. N.M. Yadrinsev shundan keyin mazkur obidalarga alohida e'tibor qarata boshlaydi, uning ekspeditsiyasi 1889-yili yozda Kosho-Saydam yerida, Kokshin-O'rxun (O'rxun daryosi bo'g'ozida) yoqasida, Ulan-Batordan 400 km orqaroqda, Ugiy-nor ko'lidan 25 km janubda hamda Qorabalasog'un xarobalaridan 40 km orqaroqda bo'lib o'tadi. Topilgan esdaliklarni V.Tomsen va V.V.Radlov dastlabki marta o'qiydi. Ular Kultegin va Mog'ilyon xon yozma yodgorliklarini topishadi, hamda ularning muallifi Yollug' tegin ekanliklarini aniqlashadi. Shuningdek, xoqonlar ashin qavmidan bo'lishi mumkin degan gipotezani ham ilgari surishadi. Mazkur esdaliklarning orqa va yon tomonlarida xitoy ierogliflari bo'lib, ular matnlarni o'qishni osonlashtirgan, ya`ni kalit so'zlar vazifasini bajargan.

Shundan keyin, ya`ni N.M.Yadrinsev ekspeditsiyasidan so'ng ikki yo'naliш harakatga tushdi. Birinchisi, rus Fanlar Akademiyasi hamkorligida V.V.Radlov, ikkinchisi, fin A.Geykel (1851-1924) o'z ilmiy kollegasi bilan matnlarni o'rganish ishlariga kirishildi. Bu guruhlarning muvafaqqiyatlari maxsus atlas xaritalari bilan belgilab ko'rsatildi. Run esdaliklari haqidagi atlas xaritalar bosilib chiqqandan keyin, hamda yetarli xulosalarga tayanib, matnlar turk xalqlariga tegishli degan xulosaga kelinadi. Shundan keyin shifrlarning sirini yechish birmuncha yengillashadi. Mazkur ishga, ya`ni matnlarning mohiyatini ochishga ikkita katta olim: Kopengagenda dat tilshunosi V.Tomsen hamda Peterburgda rus turkologi V.V.Radlov kirishdilar. 1893-yili 25-noyabrda V.Tomsen O'rxun-Enasoy obidalarini o'qishga kalit topdi va bu haqida V.V.Radlovga xat orqali 1894-yili 19-yanvarda xabar berdi. V.Tomsen o'zi topgan yangilikni dat FA konferensiyasining ochilishida gapirib berdi<sup>6</sup>.

O'zbek tilshunosligida mazkur bitiglarni o'rganishda ham katta ishlar qilingan. Jumladan, A.Rustamov, G'.Abdurahmonov, N.Rahmonovlar o'rganishgan.

<sup>5</sup> O'rxun esdaliklari ekspeditdiyasi to'plamidan, SP-1892, 106-bet

<sup>6</sup> Kononov. N.A. "Грамматика –языка тюркских рунических памятников" Leningrad-1980

Bitiglar qadimgi turkiy tildan hozirgi o'zbek tiliga ham o'girilgan. Bu jihatdan A.P.Qayumov, G'.Abdurahmonov, A.Rustamovlarning xizmati salmoqlidir. "O'rxun- Enasoy yodgorliklari" yuzasidan Nasimxon Rahmonov katta izlanishlar qildi. U mazkur obidalarning tilini o'rganish bo'yicha ilmiy ishlar qilib, o'z asarlarida turkiy-run yozuvi yuzasidan ko'plab dalillar keltirgan. Jumladan, uning "Ruhiyatdagi nur murodi" (T-2002), B.Matboboyev bilan hammualliflikda "O'zbekistonning ko'hna turkiy-run yozuvlari" (T-2006), Q.Sodiqov bilan hammualliflikda "O'zbek tili tarixi" (T-2009) singari asarlarida bevosita toshbitiglar xususida to'xtaladi. Shuningdek, Q.Sodiqovning "Uyg'ur yozuvi tarixi" (T-1997), "Ko'k turk bitiglari: matn va uning tarixiy talqini" (T-2004), "Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi" (T-2006) kabi asarlarida ham yozma yodgorliklar haqida batafsil tadqiqotlar olib borilganini ko'rish mumkin. Bugungi kunda Ergash Umarovning O'rxun alifbosi, O'rxun yodgorliklari tili xususida bir qator izlanishlar qilib, Til va adabiyot ta'limi jurnalida mavzuga doir davomiy chiqishlar qilayotgani ham obidalar mavzuining keng ko'lamliligidan dalolat beradi.

**Tadqiqot maqsadi.** Ishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligida qadimi obidalarning lug'aviy birliklari hamda ularning tarixiy tadriji haqidagi bilimlarga yangilik kiritishdir. Qadimgi turkiy tilga oid ko'pgina so'zlar yillar davomida turli o'zgarishlarga uchragan. Shuningdek, ular orasida aynan va ma'lum o'zgarishlar bilan bugungi kunda ham ishlatilayotgan so'zlar anchagina. Shu maqsadda qadimgi turkiy til va bugungi tilimiz nuqtai nazaridan ular orasidagi tafovutlarni farqlashni va nazariy asoslab berishni tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi deb qaraymiz. Buning uchun biz tadqiqot uchun eng qadimgi yozma yodgorliklarni ya`ni O'rxun-Enasoy obidalari yozuvlarini tanladik. Toshbitiglar turkiy xalqlarning qadimi yozma obidalari bo'lib ularni o'qish va ilmga tadbiq qilish ancha yillarni talab qilgan. Shu bilan birga, matnlarda anglashiladigan asosiy mohiyat va tarjima ishlariga e'tabor katta bo'lgan. Tadqiqot ishimiz orqali yozma yodgorliklarning lug'aviy qatlamlarini o'rganishni ko'zda

tutganmiz. Shu asosda bitiruv malakaviy ishimizning asosiy maqsadi O'rxun-Enasoy obidalarining lug'aviy birliklarini tarixiy jihatdan qiyoslab o'rganishdir.

**Tadqiqot vazifalari.** Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- Qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini atroficha o'rganish, taraqqiyot tamoyillarini belgilash;
- Yozma yodgorliklarining individual jihatlarini o'rganish, O'rxun-Enasoy obidalarining jahon va o'zbek turkshunosligi misolida badiiy, ilmiy qimmatini aniqlash;
- O'rxun-Enasoy obidalarida lug'aviy birliklar bilan tanishish, ularni guruhlarga ajratish bugungi kun tilshunosligi bilan qiyoslash;
- Toshbitiglar leksik qatlami, ularning tarixiy tadriji haqida ilmiy xulosalar chiqarish;

Shuningdek, tadqiqot ishimiz bugungi kundagi ekvivalenti bo'limgan so'zlarni kashf etish, hamda turkiy tilga oid bo'lgan so'zlarni, ularning qo'llanilish doirasini kengaytirish, maishiy leksikaga oid so'zlarni yanada ommalashtirish singari vazifalarni o'z ichiga oladi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Bitiruv malakaviy ishimizga o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining keyingi yillarda erishgan yantuqlari nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. O'rxun-Enasoy obidalaridan eng yiriklari Tonyuquq, Bilgaxoqon, Kultegin bitigtoshlarini esa tadqiqot ishimizning predmeti sifatida qabul qildik. Mazkur bitigtoshlar matni tadqiqotchiga juda boy material bo'lib xizmat qiladi, chunki matnlarda so'zlar asl holatida va tarjimasida berilib, ularni qiyosiy o'rganishda qulaylik tug'diradi. Bitiglarni hozirgi davr nuqtai nazaridan o'rganish, undagi matn tili va bugungi kun leksikasi bilan solishtirish tilshunoslikda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Biz mazkur malakaviy ishimizda yozma obidalardagi lug'aviy birliklarni, ya`ni leksik qatlamni qiyoslash yo'li bilan o'rganishga harakat qilamiz.

Tadqiqotimizga A.N.Kononov, S.E.Malov, Q.Sodiqov, N.Rahmonov, G'.Abdurahmonov, Q.Omonov va boshqalarning “O’rxun-Enasoy obidalari” yuzasidan ilmga tadbiq qilgan fikr va qarashlarini nazariy asos qilib oldik.

**Tadqiqot manbalari.** Tadqiqot ishimizning manbalari sifatida qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek tili yozma yodgorliklari, shuningdek, hozirgi o‘zbek tiliga oid materiallar xizmat qiladi. Asosiy manbalar esa “O’rxun-Enasoy obidalari”(Tonyuquq, Bilgaxoqon, Kultegin)ning asl matni.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqotimizda til tarixini o‘rganish jarayonida tilshunoslikda keng tarqalgan tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, til faktlarini lisoniy tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Ishda yirik tilshunos olimlar N.A.Baskakov, V.V.Reshetov, S.E.Malov, A.N.Kononov, A.Rustamov, E.Umarov, Q.Sodiqov, N.Rahmonov va boshqalarning ishlariga ham tayanildi.

**Ilmiy yangiligi.** Mazkur ish bitiruv-malakaviy ishi yo’sinida ilk bor amalga oshirilmoqda. Turkshunoslik taraqqiyoti, xususan, O’rxun-Enasoy obidalari: Kultegin, Tonyuquq, Bilgaxoqon bitiglarining lug’aviy qatlamlari o’rganilib, ular ilmiy asosda umumlashtirilmoqda.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotdagi kuzatishlar, bayon qilingan ilmiy-nazariy xulosalar O’rxun-Enasoy obidalarining leksik qatlami yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishda, shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan o’quv qo’llanmalari, ma’ruza matnlari tayyorlashda amaliy yordam beradi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Bitiruv-malakaviy ishi asoslama, kirish, ikki bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.

## KIRISH

### A. Qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlari

Qadimgi turkiy til qavmlarining o'zlari kabi ko'hna zamonlardan buyon mavjuddir. Yevropa olimlaridan ba`zilari qadimgi turkiy urug'larning paydo bo'lgan davrini miloddan oldingi o'ninchi ming yillikka olib borib bog'laydilar. Demak, turkiy og'zaki til ham shu davrga borib taqaladi. Ammo bu degani - ilk yozuv yodgorliklari paydo bo'lmasdan oldin ham qadimgi turkiy adabiy til mavjud edi, degan qarashning to'g'riliqini belgilamaydi. Bunday taxminlarning ilmiy asoslari yetarli emas. Adabiy til faqat yozma matnlarda aks etadi, yozuv paydo bo'lgunga qadar yetib kelgan voqealar adabiy tilning mezonlarini aslo belgilay olmaydi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" asarida turkiy tilning mavqeい to'g'risida shunday deyiladi: "Ishonchli bir buxorolik olimdan va nishopurlik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so'zni payg'ambarga nisbat berib aytgan edilar: payg'ambar qiyomatning belgilari, oxirzamon fitnalari va o'g'uz turklarining xuruji haqida gapirganda, shunday degan edi: "*turk tilini o'rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi*"<sup>7</sup>.

Turkiy tilning Sharqdagi tillar orasida qadimdan mavqeini belgilovchi bu dalil albatta e'tiborga loyiq. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, sharqdagi boshqa tillarga nisbatan turkiy qavmlarga va ularning tillariga alohida diqqat qaratilgan. Buning boisi esa turkiy tilning keng hududga tarqalgani edi. Shuning uchun ham bunday e'tiborli tilda badiiy asarlar, yilnomalar yaratilmasligi mumkin emas.

Qadimgi turkiy tilning holati, taraqqiyoti tog'risida asl manbalar keng ishonchli va to'laqonli ma'lumotlarni beradi. Qadimgi turkiy-run yozuvidagi yodgorliklarini, moniy va eski uyg'ur-turk yozuvidagi yodgorliklarni, Qoraxoniylar sulolasini davrida yaratilgan yozma yodgorliklarni asl manba sifatida ko'rsatish mumkin.

<sup>7</sup> M. Koshg'ariy. "Devoni lug'atit-turk". 1-jild, Toshkent, O'zbekiston FA nashriyoti, 1960, 43-44-betlar.

Mazkur turkiy yozma yodgorliklar hududiy jihatidan va maqsadiga ko'ra turlichadir. Ammo hamma yodgorliklarning til xususiyatlarini birlashtirib turadigan bitta omil shuki, XIII asrgacha qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tili ayni paytda mahalliy dialektlar ham bo'lib, adabiy til sifatida foydalanilgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar - adabiy tilning taraqqiyotini ko'rsatib turadigan asosiy manbalardir. Ana shu yodgorliklarga tayangan holda, qadimgi turkiy adabiy til murakkab jarayonni bosib o'tganini e'tiborga olish lozim. Qadimgi turkiy adabiy tilning taraqqiyotida xalq og'zaki ijodi tili va tarjima asarlari tili ham katta rol o'ynagan. Qadimgi turkiy adabiy tilning mazkur manbalari bu davrdagi til xususiyatlarining xilma-xilligini ko'rsatadi. Shu bois qadimgi turkiy adabiy til tushunchasi faqat turkiy-run yozma yodgorliklari tili bilan chegaralanib qolmaydi, **balki qoraxoniylar davri so'nggigacha bo'lgan adabiy tilni ham o'z ichiga oladi.** Bu davr adabiy tilida ko'zga yaqqol tashlanadigan alomatlar shundan iboratki, budda va moniylik she`rlari tili o'rxun yodgorliklaridan farq qildi, budda va moniylik she`rlari orqali qadimgi turkiy adabiy til xalq og'zaki ijodi asarlari tiliga yaqinlashdi, "Oltin yorug" dostoni o'g'uz, qorluq va boshqa ba`zi dialektlarni o'zida mujassamlashtirdi, ayni paytda grammatik shakllardagi an`anaviylik bilan birga, eski o'zbek tiliga oid qo'shimchalar paydo bo'ldi. (Xususan, kelishiklarda)

Qadimgi turkiy adabiy tilning qadimiyligi, xususan, miloddan oldingi davrlardagi holati to'g'risida yozma manbalarda unchalik ko'p ma'lumotlar yo'q. Xitoy yilnomalaridagina ba`zi ma'lumotlar berilgan. Turkiy til va yozuvning qadimiyligi to'g'risida Xitoy manbalarida berilgan ma'lumotlarni turkiy-run yodgorliklaridagi ma'lumotlar to'ldiradi.

Yozuv va til to'g'risida so'z ketganda, ma'lum yozuv shaklining ko'plab xalqlarga tez suratda tarqalishi nazarda tutilmaydi. Umumxalq tili ya`ni dialektlararo muloqot vositasi yozma shaklni oladi. Mazkur til bir yoki bir nechta dialektlar asosida shakllanganmi yoki yo'qmi – bu unchalik ahamiyatli emas. Qadimgi turkiy yodgorliklar o'zgarmagan, asl holatini saqlagani va barcha turkiy

qabilalar uchun yagona bo'lgani uchun, adabiy til xususiyatini o'zida gavdalantiradi. Adabiy tilning fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va leksik tarkibi ayni shu yodgorliklarda mujassamlashgan.

Qadimgi turkiy-run yodgorliklari adabiy tilni o'zida ifodalar ekan, qadimgi turkiy tildagi bu jarayonga nisbatan *koyne* terminini qo'llash maqsadga muvofiqdir. *Koyne*<sup>8</sup> -bir yoki bir necha dialekt asosida kelib chiqqan, mamlakat aholisining turli guruhlari o'rtaсидаги dialektlararo munosabat vositasi bo'lib xizmat qiladigan tildir. Demak, qadimgi turkiy tilda *koyne*- leksik qatlam, fonetik tizim, so'z yasalishi turlari, morfologik shakllar va sintaktik konstruktsiyalardagi umumiy jihatlarni qamrab oladi. Tildagi bu hodisani ma'lum bir mamlakat hududida amal qiladigan qonunlar majmuiga qiyoslash mumkin. Qonunlar, aqida va farmonlar o'zgarmagani va hamma uchun bir mezonga ega bo'lgani singari, *koyne* ham o'zgarmasdir. Agar koyneda o'zgarish yuz beradigan bo'lsa, bu tashqi omillar natijasida majburan qilingan bo'ladi.

Qadimgi turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanganini qadimgi turkiy yozma yodgorliklarning leksik qatlami ko'rsatib turibdi. Qadimgi turkiy yodgorliklarni ilk bor tadqiq etgan V.V. Radlov yozuv xususiyatlariga, fonetik va morfologik xususiyatlarga asoslangan holda, bu davrda uchta dialekt qadimgi turkiy adabiy tilni shakllantirganini aytgan edi. Bu dialektlar quyidagilardir: 1) qadimgi shimoliy dialekt (Turk-sir dialekti, bu "Oq turklar yoki g'arbiy turklar" degan ma'noni bildirib, hozirgi O'rta Osiyoda istiqomat qilgan turkiy qavmlarni bildiradi); 2) Qadimgi janubiy dialekt (uyg'ur tili); 3) Aralash dialekt (buni "aralash til" deb ham aytish mumkin).

- 
- 1) qadimgi shimoliy dialekt
  - 2) Qadimgi janubiy dialekt
  - 3) Aralash dialekt

1-jadval, N.Rahmonov,Q.Sodiqov "O'zbek tili tarixi" T-2009, 32-bet

<sup>8</sup> yunoncha *koine dialektos* so'zidan bo'lib, "Umumxalq tili" ma'nosini bildiradi

Qadimgi turkiy adabiy til Markaziy Osiyoning turli hududlarida amal qilish jarayonida mahalliy dialektlarning ta`siri ostida o'zgarishga uchragani tabiiy hol. Shuning uchun ham ayrim turkologlar (masalan, Amir Najib) turli hududlardagi turkiy tillarga nisbatan “adabiy dialect” terminini qo'llaganlar. U yoki bu guruhdagi yozma yodgorliklarga nisbatan “adabiy dialect” “adabiy til” tushunchasi o'rnini bosadi<sup>9</sup>. Bu qarash faqat o'rta asrlardagi yozma yodgorliklarga nisbatan emas, balki qadimgi turk davridagi yodgorliklarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, o'rxun yodgorliklari tili bilan enasoy yodgorliklari tili o'rtasidagi, O'rxun-Enasoy yodgorliklari bilan turk-uyg'ur yozma yodgorliklari tili o'rtasidagi farqlar shunday fikrga undaydi. Bu farqlar tahlilida yozuv turlari va xususiyatlarini nazarda tutish lozim. Shubhasiz, bu dalillar bitta til emas, balki qadimgi turkiy tillar bo'lgani va Markaziy Osiyoning katta hududidan g'arbgacha yoyilganini dalillashga xizmat qiladi.

Anglashilayotganidek, qadimgi turkiy til o'ziga xos xususiyatlarga ega. Hatto fonetik va morfologik jihatdan turkiy tilning birinchi va ikkinchi bosqichlari o'zaro bir-biridan ajralib turadi. Qadimgi turkiy til fonetik jihatdan quyidagi o'ziga xosliklarga ega. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida 8ta unli qo'llanilgan: til oldi *e*, □, *u*, *i* tovushlari va til orqa *a*, *o*, *u*, *t* tovushlari. So'z o'rtasi va so'z oxirida jarangli-jarangsiz va jarangsiz-jarangli undoshlarni yonma-yon qo'llash ko'p uchraydi.

O'rxun-Enasoy yodnomalarida, asosan, 41ta belgi bo'lgan. Ular bir-biriga bog'lanmasdan o'ngdan chapga qarab yozilgan va shunday o'qilgan. Bu alifboda unli tovushlarni ifodalash uchun to'rttagina belgi bo'lgan, xolos. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, qadimgi turkiy tilda, shuningdek, O'rxun-Enasoy yodgorliklari tilida ohangdoshlikning (singarmonizmning) ham tanglay, ham lab uyg'unligi mavjud bo'lgan. Shunga ko'ra garchi yozuvda to'rttagina belgi orqali unli tovushlar ifodalansa-da, nutq tovushi sifatida, ularning soni ko'proq bo'lgan, ya`ni yuqorida qayd qilinganidek, qadimgi turkiy tilda 8 ta unli tovush bo'lib ular bir-biridan qatori, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligiga ko'ra farqlanadi. Bu xususda, Ergash Umarov boshqa bir qarashni ilgari surmoqda, ya`ni uning Til va

<sup>9</sup> A.N.Najip “Исследования по истории тюркских языков XI-XIV вв”.- М.: -1989, 3-бет

adabiyot ta’limining 2013-yil 2-sonida “Turkiyshunoslikda bir xato xususida” nomli maqolasida V.Tomsenning ikkita masalada xatoga yo’l qo’yanligini qayd qiladi. Uning xatoga yo’l qo’ygani sababini esa bitiglar tilini o’rganishda yevropa tillari tovush tizimidan kelib chiqib yondashganligida deb belgilaydi. Maqoladan parcha keltiramiz: “*Turkshunoslarga ma’lumki, turkiy, jumladan, o’zbek tilidagi unlilar qator bo’yicha tasnif qilinmaydi. Sababi unlilarni bunday ikkiga bo’lishning lingvistik asosi yo’q. Inchunun, bir running ikki unlini anglatishi mantiqqa zid. Bu xato natijasida V.Tomsen to’rtta runa sakkizta unlini ifodalagan degan noto’g’ri xulosa chiqardi. Afsuski, bu xato hozirgacha davom etib kelmoqda*”<sup>10</sup>. Demak, bu masala ham chuqur tadqiqotga muhtoj. Ayni damda yodgorliklar tilini o’rganishda yevropa tillari tovush tizimiga asoslanilgani matn mazmuniga ham ta’sir qilgan bo’lishi, ehtimoldan holi emas.

## B. O’rxun-Enasoy obidalarining tarixiy qimmati va tadqiqi xususida

Qadimgi davrdagi turkiy qabila va urug’lar, ularning tillariga oid juda ko’p manbalar, tarixiy yodgorliklar mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug’lar va ularning tillari O’rxun-Enasoy yodgorliklari orqali aniqlangan. Bu yodgorliklarning topilish tarixi, bitiklarning adabiy-tarixiy qimmati darslik va qo’llanmalarda, bir necha ilmiy tadqiqotlarda o’rganilgan. O’rxun va Enasoy bitiglari jahon turkiyshunoslari e’tibori qaratilgan nodir yodgorliklardandir. O’rxun-Enasoy yodgorliklarining ko’pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida ayniqsa, sibirlik o’lkashunos N.M.Yadrinsev tomonidan 1889-yilda Mo’g’ulistonda O’rxun daryosi bo’ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Enasoy daryosining yuqori qismidan va Qirg’izistonidagi Talas vodiysidan, shuningdek, Baykal ko’li atroflari , Lena daryosi sohillaridan ham topilgan.

O’rxun-Enasoy yodgorliklari asosan, toshga o’yib bitilgan yozuvlardan, idish, tangalar kabi buyumlarda va qog’ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo’lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o’qilishi jumboq bo’lib qoladi. Shunga ko’ra, u

---

<sup>10</sup> Til va adabiyot ta’limi jurnali. 2013-yil 2-son, 36-38 betlar.

qadimgi skandinav-german tillariga oid run, runiy (Runa “sirli, yashirin”) nomi bilan ham yuritiladi. Faqat XIX asrning 90-yillarida bu yozuvni dastlab daniyalik olim V.Tomsen va rus turkologi V.V.Radlov o’qiydilar. Ular bu yodgorliklarning til xususiyatlari turkiy xalqlarga tegishli ekanligini aniqlab beradilar. Shundan keyin ko’p yillar davomida bu yozuvlarni tarjima qilish, til xususiyatlarini o’rganish va nashr etish sohasida katta ishlar qilinadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, yaqin yuz yetmish yil davomida dunyoning ko’p arxeologlari, tilshunoslari, tarixchi olimlari bu yozuv “run” (sirli) emasligi borasida ko’p mehnat qildilar. D.G.Messershmidt dunyoga Enasoy yozuvlarini kashf qildi, N.M.Yadrinsev run yozuvlari deshifrovkasi uchun sharoit yaratib berdi, V.Tomsen yozuv belgilari va tilini aniqladi, V.V.Radlov matn mazmunini tushintirib berdi, S.Y.Malov runologiya sohasida filologlar maktabiga asos soldi. Shundan so’ng, S.G.Klyashtorniy, I.V.Stebleva, H.O’rxun, T.Tekin, Najib Osim, G.Aydarov kabilar bitiglarni o’rganishga kirishganlar. Bu bitigtoshlar VII-VIII asrlarga tegishli bo’lib, turk xoqonligi davrida runiy yozuvda bitilgan. Ular grafik jihatdan bir-biriga ancha yaqin turadi. Sug’diy yozuvi ta’sirida paydo bo’lgan qadimgi turkiy run yozuvi G’arbiy va Sharqiy turk xoqonligida keng tarqalgan edi. Toshbitiklar turkiy xalqlar tarixida favquloddagi yozma adabiyot emas. Ular qadimgi turkiy xalqlar og’zaki ijodining mantiqan davomi, o’zidan avvalgi adabiyotning mazmuni, ruhi, g’oyasini rivojlantirgan yangi shaklidir. Tosh bitiklardagi arxaik tasvirlar shundan dalolat beradi. I.V.Stebleva, N.Rahmonov va boshqa olimlar tosh bitiklarning bunday xususiyatlarini asoslab bergenlar. Yodnomalarda bayon qilish usuli va bu usulning uch qat’iy unsurlari—asarda boshlanma, voqeа rivoji, tugallanmaning mavjudligi turkiy, umuman, barcha xalqlar og’zaki ijodiga xos arxaik xususiyatlardir. Tosh bitiklar qadimgi turkiy xalqlar og’zaki ijodining davomi sifatida yuzaga kelganligining asoslari mavjud. Masalan, Ungin yodnomasi shunday boshlanadi:

*Ačumiz, apamiz Yami qağan*

*Tort bulunguğ qismiš,*

*yığmıš, yamis, basmis,*

*Ol qan yoq boltuqta kasra  
Al yitmis, ičxinmiş Ačamiz,  
(otamiz Bumin xoqon To'rt bo'lakni  
qismish, yig'mish, yoymish, bosmish  
Ul xon yo'q bo'lgandan so'ngra  
El yo'q bo'lmish, qochishmish).*

Ya`ni, Bo'min dastlabki turk xoqonlaridan hisoblanadi. Shu sababdan ham xalq orasida uning hayoti to'g'risida rivoyat yoki afsonalar yaratilgan bo'lishi kerak, chunki Kultegin va Bilga xoqon yodnomalarida ham Bo'min haqida eslatilishi shundan dalolat beradi. Shunga o'xhash belgilar orqali ham yozma yodgorliklarni qadimgi xalqlar og'zaki ijodining mantiqan davomi ekanligini tasdiqlash mumkin.

Eramizning 745-yilida turk xoqonligini bosib olgan uyg'urlar davlati, asosan, ilgari Sharqiylar turk xoqonligi tarkibiga kirgan qabilalarni birlashtirar edi. G'arbiy turk xoqonligining ajralib ketishi uyg'urlar davlatini kuchsizlantiradi. Buning natijasida 840-yilda uyg'ur davlati qirg'izlar tomonidan bosib olinadi. Qirg'izlar xukmronligi X asrgacha davom etadi. Ammo, o'zining birligini ittifoqini yo'qotgan ko'pgina uyg'ur qabilalari qirg'izlar hujumidan keyin g'arbgaga yo'l olib, o'z mustaqil davlatini tuzadi. Turk xoqonligi tarkibiga kirgan turklarning bevosita davomchisi, vorisi bo'lgan uyg'urlar juda katta meros –o'sha davr tilini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar qoldirganlar. Bu yodgorliklar birin-ketin yozilganligi bois ular xronologik jihatdan ikkiga bo'linadi.

Birinchi davrga xos obidalar eng qadimgi yodgorliklar bo'lib, ular O'rxun yozuvi obidalari bilan umumiylikka ega bo'lgan bitigtoshlardan iborat. Bular ichida eng mashhuri turk xoqonlari Kultegin va Tonyuquq sha'niga qo'yilgan qabr toshlariga yozilgan yodgorliklardir. Bu toshlar O'rxun (Mo'g'uliston) va Enasoy daryolari bo'yalaridan topilganligi sababli fanda "O'rxun-Enasoy yozuvlari" deb nomlanadi. Shuningdek, bu yozuv run nomi bilan ham ataladi. "**Run**" so'zi Skandinaviya xalqlari tilida "sirli, tilsim" ma'nolarida qo'llangan. Sibirda surgunda bo'lgan shved ofitseri F. T. Tabbert-Stralenberg 1730-yilda O'rxun-

Enasoy yozuvlarining bir nechtasini topib, hali tarixda noma`lum bo`lgan va hali tarixda hech kimsaga tushunarli bo`lmasan bu yozuvni yuqoridagidek nomlagan edi.

Yozuvni dastlab V.Tomsen o`qidi. U 1893-yil 15-dekabrda Daniya fanlar akademiyasi majlisida O`rxun daryosi bo`yidan topilgan yodgorliklarning sirini topganligini ma`lum qildi va bu yodgorlik turkiy xalqlar tilida yozilganligini bildirdi. 1894-yil 19-yanvarida V. Radlov “Kultegin” sharafiga qo`yilgan yodgorlikning tarjimasini beradi. R.Melioranskiy 1899-yilda uning qayta tarjimasini taqdim qiladi. O`rxun-Enasoy yodgorliklari yana o`z navbatida uch tarmoqqa bo`linadi:

O`rxun yodgorliklari	• Mo'g'uliston hududidagi O`rxun daryolari bo`yidan topilgan Kultegin, Tonyuquq yodgorliklari
Enisey yodgorliklari	• Bu hozirgi Enisey va Tuvaldan topilgan yodgorliklari
Talas yodgorliklari	• Hozirgi Jambul viloyatidan topilgan yodgorliklari

2-jadval , Qadimgi turkiy tili. I. Azimov, M Rahmatov T-2005, 6-bet

Bu xil bitiklar faqat O`rxun va Enasoy bo`yidagi emas, ko`kturklar hukmronlik qilgan ulkan hududning deyarli hamma joyida uchraydi. Oltoy atrofi, Talas vodiysi, Kavkaz, Volga, Dunay bo`ylarida ham bu xil yodgorliklar bo`lib, ular bugungi kungacha topilib keladi. Chunonchi, XX asrning 60-70 yillarida Qozog`iston hududida bir qator namunalari topilib e`lon qilindi. Shuningdek, ularning doirasi qabrtoshlari bilangina cheklanib qolmagan. Turli-tuman idishlar, uy-xo`jalik ashyolariga bitilgan namunalar ham uchramoqda. Nihoyat, ularning adadi haqida gapiradigan bo`lsak, bиргина Enasoy bo`ylaridan topilgan yodgorliklar saltam 250 nafardir. Tosh bitiklarning har biri o`ziga xos mustaqil adabiy-tarixiy asardir. U she`riy yo`lda bitilgan. O`z davrining ruhi singdirilgan.

Shu sababli ham I.V. Stebleva ularni «*tarixiy qahramonlik poemalari*» deb ataydi. O’rxun va Enasoy tosh bitiklari barcha turkiy xalqlarning adabiy yodgorligidir.

O’rxun va Enasoy bitiklari haqida to’laroq tasavvur olish uchun ularni O’rxun bitiklari va Enasoy bitiklari deb alohida guruhlab ko’rsatamiz.

### **O’rxun yodnomalari**

**Ungin bitigi.** Bitig Mo’g’ulistondagi Ungin daryosi bo’yidan topilgan. Eltarish xoqonning yaqinlaridan biri Eletmishev yabg’u va uning o’g’li Cho’ryo’g’ a sharafiga qo’ylgan deb taxmin qilinadi. Bitigda Eltarish xoqonning turk xalqini oyoqqa turg’izib, mamlakatni qayta tiklashi hikoya qilinadi. Bitig so’ngida xoqonning tarixiy xizmati haqida ham fikr yuritiladi.

**Moyun Chur bitigi.** Bitigni 1909- yilda fin olimi G.I.Ramsted Shimoliy Mo’g’ulistonning Selenga daryosi bo’yidan topgan. Moyun Chur – uyg’ur xoqoni bo’lib, bitig tosh 759- yilda o’rnatilgan. Yozuvda turkiy qavmlar o’rtasidagi jangavor yurishlarning tafsilotlari Moyun Chur tilidan hikoya qilinadi. Voqealar Selenga daryosi atrofida bo’lib o’tadi. Uyg’urlar davlati obod edi. Unga avval Bilga xoqon, keyin Bo’yla Bag’an Tarxan (hukmdor, qo’mondon) xoqonlik qilishgan. Bo’yla Bag’an Tarxan shad (turkiy xoqonlar sazovor bo’lgan eng oliy harbiy unvon)ga ega edi. Bu paytda Moyun Chur 26 yoshda edi, otasining qo’shinida mingboshi vazifasini bajarardi. Qarluqlarga qarshi jangda ishtirok etardi. Bitikda Bo’yla Bag’a Tarxan vafot etishi, xoqonlik Moyin Chur qo’liga o’tishi, lekin xalqning bir qismi Tay Bilga Tutuqni xoqon deb e`lon qilishi, Moyun Chur esa hokimiyatni qo’lga kiritish uchun unga qarshi kurashishi voqealari aks etgan. Moyun Chur bitigi ko’proq tarixiy qimmatga ega. Jang yillari, joy nomlari, qahramonlarning ismi va unvonlari aniq ko’rsatiladi. Bitikda xalq maqollaridan ham unumli foydalanilgan. Masalan, «G’am o’z uyingda» maqoli bir qavmdan o’z qavmiga qarshi chiqqanlar tasvirini umumlashtiradi. Moyun Chur qo’rqmas,adolatli, turkiy xalqlarni ahillikka chaqiruvchi, bo’ysunmaganlarga nisbatan shavqatsiz xoqon ekanligi ko’rsatilgan. Uning obodonchilikka, xususan, qo’rg’onlar, shaharlar qurilishiga rahnamoligi aniq dalillar bilan tasvirlangan.

### **Enasoy yodnomalari**

**Eletmish Bilga xoqon bitigi.** Yozuv qahramonlik jangnomasi ruhidagi yodnomadir. Unda o’z xalqidan kuch olib, dushmani egallagan joyidan quvgan Bilga xoqonning kechinmasi berilgan. U o’z eli va davlatini mustahkamlashning sababini yuqorida Ko’k osmon – Ko’k tangri, pastda qo’ng’ir yer tarbiyalagani va madad bergani, deb tushunadi.

**Uyuq Turan bitigi.** Uchun Qulug Tirig nomli hukmdorning o’z qarindosh urug’lari va xalqidan ajralganligining marsiyasi. U 63 yoshida olamdan o’tgan. Vatandan ajralganligini judolik deb biladi. Oltin kamarini belga bog’lab, bahodirlik namunasini ko’rsatganligini eslaydi. Yodnomada toshida ko’rsatilishicha, u hukmdorlik qilgan hudud Agun Qatun deb atalgan.

**Elegeshdan topilgan bitig (*Bitigtosh kimning kechinmasi ekanligi noma`lum*).** U xalqi, qarindosh-urug’lari, davlati va xoqonidan ayrilgan. Yodnomada o’z marsiyasini aytayotgan qahramon Tuk Bug’u mamlakatining jangchisi bo’lgan. Unda yuzta dushmanga teng keladigan kuch va iroda bor edi. Ular janubga qo’shin tortadi, sakkiz kishi qahramonlik ko’rsatadi va yo’lbars yilida qahramonlarcha halok bo’ladi

**Begra bitigi.** Tur ismli saroy xizmatchisining yig’isi. U o’n besh yoshida xitoylar tarbiyasida bo’ladi. O’n besh yoshida Tabg’ach xoqoni xizmatiga kiradi. Hayotida ko’p azoblarni ko’radi. Uch o’g’lidan ajraladi. O’z elidan Xitoyga qimmatbaho buyumlarni olib boradi. Yetti bo’ri, bir necha yo’lbars va kiyiklarni o’ldiradi. 67 yoshida vafot etadi. U o’z xalqini bardoshli bo’lishga chaqiradi.

**Chako’l bitigi.** Xoqon Bilga Chikshan xizmatida bo’lgan Chiksin yig’isi. U o’z eli, xoqoni, mamlakati uchun fidoyi inson. Lekin hayotdan faqat g’am-alam ko’radi. Tirikligida sakkiz o’g’lidan ajraladi. Shu sababli o’z nomini «alamlı Chiksin» deb ataydi. Lekin xalqi, xoqoni, do’stlariga qilgan xizmatini sharaf deb tushunadi.

**Oznachennaya qishlog’idan topilgan bitig.** Hukmdor Al Inanchuga xizmat qilgan bahodir yig’isi. U dushman bilan xalqi va do’stlari uchun jang qiladi. Shahzoda Kuch Kul tutuq jangda halok bo’lganidan aziyat chekadi. O’ttiz besh yoshida qahramon nomini oladi.

**Achur qishlog’idagi bitig. Uri bek xoqonga el marsiyasi.** Uri o’z elining hukmdori. U el og’asi Inanchu bilganing o’g’lidir. Uning haqiqiy ismi Kuch, qahramonlik laqabi Uridir. Uning mamlakati boy bo’lib, «puli ko’p edi, qora sochidek». Yetti ming sonli qo’shini bor edi.

**Oltinko’ldagi ikkinchi bitig.** Jasoratli qahramon Eran Ulug’ yig’isi. U o’ttiz sakkiz yoshida vafot etadi. Inanchu alplari orasida kurashadi. Tibet xoqoniga elchi jo’natib, undan sovg’a oladi.

**Ubayt bitigi.** Qahramon jangchi Tarxon Sangun yig’isi. U olti yoshida otasidan ajralgan. U El Chur elida bahodirligi bilan shuhrat qozonadi. O’ttiz jangchi bilan dushman pistirmasiga duch keladi va halok bo’ladi.

O’rxun-Enasoy tosh bitiglari tarixiylik xususiyatiga ega. Ular hayotdagi aniq shaxslarga bag’ishlangan. Shu bilan birga mifologik tasavvurlar ham ifodalangan. Qadimgi turkiylar mifologiyasiga ko’ra tangri yer va osmonni yaratuvchi, u yagonadir. Tangri turkiylar uchun – ota, yer esa onadir.

O’rxun bitiglari Enasoy bitiglaridan epik tasvirning kengligi bilan ajralib turadi. Bu yodgorliklarda ham marsiya va madhiya ruhi yetakchilik qiladi. Lekin voqelikning ifodalanish xususiyatiga ko’ra boshqa janrlarning ham belgisi mavjud. Kultegin va Bilga xoqon yodgorligi badiiy tasvirning yetakchiligi hamda epiklik xususiyati bilan qahramonlik dostonlarini eslatadi. Tonyuquq yodgorligida esa voqealarning badiiy tasviri yetarli darajada emas.

Demak, tosh bitiglarda adabiy janr talablariga ko’ra marsiya, madhiya, doston va memuar shakllari mavjud. Tosh bitiklarda badiiy tasvir vositalari, xalq tili boyligidan unumli foydalanilgan. Kultegin asarida turk xalqining tabg’achlar tomonidan ezilishi, zulm o’tkazilishi shunday tasvirlanadi:

*Turk budun illaduk ilin ičqinu idmiš,  
Qağanladuk qağanın jituru idmiš.  
Tabğač budunka barilik □ri oğlin kul bolti,  
Silik qız oğlin k□ň bolti.*

Mazmuni:

*Turk budun ellashgan elni buzg’un etmish,*

*Qog'onlangan qog'oni tuban etmish.  
Tabg'ach budung'a qattiq o'g'illari qul bo'ldi,  
Suluv qizlari cho'ri bo'ldi.*

Qadimgi turkiy adabiyotning vorisi hisoblangan bugungi ko'plab milliy adabiyotlar unda o'z tarixini, shakllanish jarayonini, katta hajmli nodir asarlarning tug'ilish ildizlarini ko'radi. XX asr qozoq yozuvchisi M.Avezov shunday yozadi: «har qanday tadqiqotchi yodnomalarni o'qib, «Manas»dagi Manas, Almambet, Kubak, sirnoqlarning qahramonligi bilan yodnomalardagi harbiy yurishlar, janglar, olishuvlar o'rtasidagi parallellikni ko'rishi mumkin».


Yodgorliklarning eng yiriklari Tonyuquq, Bilgaxoqon va Kultegin bitigtoshlaridir:

**Tonyuquq bitigtoshi.** Bitigtosh 1897-yilda Ulanbator shahri yaqinida topilgan bo'lib, bir-biriga qaratib qo'yilgan ikki to'rt qirrali tosh ustundan iborat. Tosh ustunlarning biri 170, ikkinchisi 260 sm balandlikda. Yozuv 62 satrni tashkil etadi. Bitik Eltarishning maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa bag'ishlab, uning tirikligida 732-716 yillarda yozilgan.

**Kultegin bitigtoshi.** Kultegin bitigtoshi mazkur yodgorliklar orasida ham hajman, ham mazmunan eng salmoqlisidir. Bitik katta marmar toshga o'yib yozilgan. Toshning balandligi 3 metr 15 santimetr, qalinligi 41 santimetr, tub qismi 1 metr 24 santimetr. Marmar taxtaning tepa qismi o'rtasida besh burchakli lavha o'rnatilgan. Lavhada arxar surati aks etgan xoqonlik tamg'asi naqshlangan. Matnning hajmi 66 sm. Toshbitik Kultegin qabriga qo'yilgan. Kultegin turk xoqoni Eltarish xoqonning kichik o'g'lidir. Eltarish xoqon 692-yilda vafot etgan edi. Kultegin 685- yilda tug'ilgan. Akasi Bilgaxoqonning sarkardasi edi. Kultegin 731-yilning 27-fevralida 47-yoshida vafot etadi. Bitigtosh Bilgaxoqon buyrug'i bilan, Yollug' tegin tomonidan 20 kun davomida yozib tugatiladi.



**Bilgaxoqon bitigtoshi.** Bu bitigtosh ham Kultegin yodgorligi singari O’rxun daryosi bo’yida Shimoliy Mo’g’istonning Ko’kshin-O’rxun tumani hududida joylashgan. Har ikki bitigtosh atrofi bir chaqirim atrofida. Bitigtoshning bo’yi uch metr, 45 santimetr. Eni 1 metr, 72 santimetr, qalinligi 72 santimetr. Bizga shikastlangan holda yetib kelgan. Ag’darilib, uch bo’lakka bo’lingan va yozuvlarning ayrim joylari zararlangan.




Bitigtosh Eltarish xoqonning katta og’li Bilga xoqon sharafiga o’rnatilgan. Bilga-ulug’ degani. Bilga xoqon 684-yilda tug’ilgan, 18-yil xoqnlik qilgan, 734-yilda yaqin qarindoshlarining biri tomonidan zaharlanib o’ldirilgan. Bitigtosh shu yili o’rnatilgan. Uning muallifi ham Yollig’tegindir. Shu tariqa, yodnomalarning tarixiy, milliy qimmati shuki, ular orqali biz o’tmishimiz, ajdodlarimiz qahramonliklari to’grisida ma`lum tasavvurlarni olamiz.

### C. Kultegin va Bilgaxoqon bitiglarining boshlamalari to’g’risida

Mashhur Kultegin va Bilgaxoqon bitiglarining muallifi adib va tarixchi Yo’llug’ tegin ersa-da, bitiglarning asosiy qismi Bilgaxoqon tilidan so’zlanadi.

Ularda xoqonning el-ulusga murojaati, chaqirig'i berilgan. Bitiglar xoqonning quyidagi so'zlari bilan boshlanadi:



Farqi: Bilga xoqon bitigida yettinchi nuqtalar oralig' idagi so'z



ko'rinishida.

S. YE. Malov Kul tegin bitigi boshlamasidagi ushbu jumlanı *Täňri tag täňrida bolmis, turk bilga qağan bu* *□dka olurtim* shaklida o'qib (S. YE. Malov. 1951, 27) , rus tiliga “ Небоподобный, неборождённый ( собств. “ на небе” или “из неба возникший”) тюркский каган” яныне сел (на царство)” deb tarjima qilgan(S. YE. Malov. 1951, 31).

Husayn O'rqun bu jumlanı turkchaga" *Göge benzer gakte (mevcud) olmuş Turk Bilge hakan bu zamanda [iktidar mevkiine] oturdum*" deya o'girgan. (O'rqun. 1987, 22-23)

Talat Tegin esa ushbu jumlanı turkchaga “(Ben) Tanrı gibi (ve) Tanrıdan olmus Türk Bilge Hakan, bu devirde tahta oturdum” deya o’girgan (Tekin. 1988, 3, 62).

E'tibor bersangiz talqinlarning barida umumiyligini yaqinlik bor: ularda yurt egasi Bilga xoqon o'zini “ko'kdan yoki tangridan bo'lganligi, yaralganligi”ni (Небоподобный, неборождённый (собств. “на небе” или “из неба возникший ; ḡkte (mevcud) olmus; Tanridan olmus) ta`kidlamoqda. Bitiglar boshlamasining bundayin talqini turkshunoslarda qiziq bir fikr uyg'otgan. Unga ko'ra, turk xoqonlari o'z nasl-nasablarini Ko'k yoki Tangri bilan bog'laydilar, o'zlarini undan yaralgan deb qaraydilar. Bundayin qarash ularga qadimgi Xitoy falsafasidan o'tgan, degan fikr ustuvor. Lekin bu qarashga qo'shilib bo'lmaydi. Buning raddini bitiglarning o'zidan topamiz.

Kultegin va Bilgaxoqon bitiglaridagi xoqonlikning uzoq o'tmishi to'g'risidagi hikoyalar quyidagi jumlalar bilan boshlangan: *Uza kôk tanri, asra yağız yar qilintuqta ikin ara kisi oğli qilinmis. Kisi oğlita uzä äcüm apam Bumin qağan, Istami qağan olurmış.* - “Yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer

yaratilganda ikkisining orasida inson bolasi yaralgan. Inson bolalari ustidan otabobom Bumin xoqon (va) Istami(lar) xoqon bo'lib (taxtga) o'tirgan” (Kultegin 1). Bilga xoqonning ushbu hikoyasida turklarning olamni anglash haqidagi tasavvur-qarashlari aks etgan. Unga ko'r, yuqorida osmon, pastda yer, ikkisining orasida esa inson bolalari yaralgan. Muhimi, Bumin va Istami to'g'risida so'z borar ekan, ular “ko'kdan yoki tangridan yaralgan” deb emas, (tangrining saylashi, xohish-inoyati bilan) inson bolalari ustidan boshchilik qilish uchun taxtga o'tirganliklari ta'riflanadi.

Boshqa bir misol: Bilga xoqon bitigida ikki o'rinda-birinchisi ulug' bitigning boshlanishi (X.1), ikkinchisi bitigning xotima qismida (Xa.13) shunga o'xshash unvon keltirilgan:

Birinchisi Bilga xoqonning, ikkinchisi esa uning kichik o'g'li Bilga Qutlug' xoqonning unvonidir.

S.YE Malov ushbu jumlanı *Tanri-tag tanri yaratmis turk bilg(a) qağan sabim* shaklida transkripsiya o'girib, birinchisini ruschaga “Вот речь моя, подобного Небу, Небом поставленного (или угодного Небу) тюркского мудрого (Бильгя) кагана” deb tarjima qilgan (S.YE. Malov 1959, 23)

Husayn O'rqun esa bu jumlanı turkchaga “*Gäge benzer gögün yarattığı Turk Bilge Hakan [iste benim] səzum*” deya o'girgan (Orkun 1987, 58-59).

Talat Tegin esa bu jumlanı turkchaga “*Tańri gibi, Tańri (hukumdar) yapmış, Turk Bilge Hakan , səzum*” deya o'girgan (Tekin, 1988, 37,99).

Bu talqinlarda xoqonga “Ko'k o'rnatgan, ko'k yaratgan, tangri o'rnatgan” (Небом поставленный, *gögün yarattığı, Tańri (hukumdar) yapmış*) sifatlari berilmoqda.

Shu o'rinda ushbu jumlanı sinchiklab qarasak. Birinchi *Täńri tag* so'zi “ko'k, osmon” ma'nosida kelgan, u o'zi birikayotgan *Täńri* (ya'ni xudo) ning sifatidir. *Tańri-tag tańri* deyilganda “ko'kday (ulug') tangri” tushuniladi. Keyingi *yaratmis-* sifatdosh bo'lib, “*yaratgan*” degani; *bilg(a) qağan* ga qo'shilayotgan *turk* so'zi etnos emas, balki “jasur, bahodir” degan ma'noda kelgan. So'nggi *sabim* -“mening so'zim, buyrug'im, yorlig'im” degani. Shularga tayanib, ushbu

boshlamani quyidagicha talqin etishimiz mumkin: “Ko’kday (ulug’) tangri yaratgan jasur Bilga xoqon so’zim”. Aslida, bu Bilga xoqonning unvonidir. Keyinchalik uning o’g’li Qutlug’ ham otasining unvonidan foydalangan. Shu unvon bilan ulug’ bitigning boshlanishida Bilga xoqonning, bitig xotimasida esa Bilga Qutlug’ xoqonning yorlig’I berilgan.

Bilga xoqon bitigidagi ushbu boshlamada ham xoqonning sifati “ko’kdan bo’lgan”, “tangridan bo’lgan” deb emas, “Ko’kday (ulug’) tangri yaratgan” (*Tañri-tag täñri yaratmis*) deya qayd etilmoqda.

Bu boshlama xoqonning el-ulusga yo’llagan yorlig’ining unvonidir. Unvon uch komponentdan tuzilgan: birinchisi yaratganning e’tirofi (*Tañri-tag täñri yaratmis*), ikkinchisi xoqonning oti va unvoni (*turk bilg(a) qağan*, uchinchisi esa “so’z, farmon, yorliq”ning xoqonga qarashliligin anglatuvchi bo’lak (*sabim*)

O’rta asrlarda bitilgan turkiy yorliqlarning boshlamasida ham ba`zan yorliq yo’llayotgan yurt egasining darjasи, unvoni qo’shib yozilgan. Masalan, Shohruh Mirzoning 1422-yili yozilgan nishoni *Sahruh bahadur* shaklida keladi. Ushbu birikmadagi *bahadur* so’zi yuqori tabaqa kishilariga beriluvchi nisbani, unvoni bildiradi. Qiyos uchun turkiy yorliqlar boshlamasida qo’llangan *abu-l-muzaffar*, *abu-l-g’azi* unvonlarini eslash kifoya. Bilga xoqon unvonidagi *sabim-* “mening so’zim” degani emas, balki “mening murojaatim, mening yorlig’im” ma’nosidadir. Turkiy tilning keyingi bosqichida *sab( ~saw)* so’zi iste’moldan chiqib, uning o’rnida *so’z* kalimasi qo’llana boshladи. Endi rasmiy hujjatlar boshlamasida ham qadimgi *sab(~saw)* o’rnini *so’z* egalladi. Bu ham tarixiy an`anaga muvofiq holda “buyruq, farmon, yorliq” ma’nolarini beradi.

Yuqoridagilar asosida Bilga xoqon bitigidan o’rin olgan yorliqlar boshlamasini shunday talqin etish mumkin: “Ko’kday (ulug’) tangri yaratgan qudratli Bilga xoqon so’zim”. Bilga xoqon ham, uning o’limidan keyin esa o’g’li Bilga Qutlug’ ham o’z yorliqlarini ana shu unvon bilan boshlaganlar. Ushbu boshlamada barcha komponentlarning to’la-to’kis, lo’nda, ixcham holda muayyan qolipga jaylashganligi ko’k turk hujjatchiligidа rasmiy hujjat unvonlarining uslub jihatdan anchayin takomillashganidan darak beradi.

## **I BOB. O'RXUN –ENASOY OBIDALARI LUG'AVIY**

### **BIRLIKЛАRIDAGI GRAMMATIK SHAKLLAR TADRIJI**

Qadimgi turkiy til leksikasi mazkur tilning qaysi dialektlar asosida shakllanganini ko'rsatishi bilan diqqatga sazavor. Shuningdek, ma'lum bir davrga oid nutq xususiyatlari, xalqning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti, dunyoqarashi, xullas, imkoniyatning moddiy, ma`naviy va maishiy hayoti bilan bog'liq hamma jihatlar leksikada aks etadi.

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlami ham o'ziga xos. Bu tilning leksikasidagi o'ziga xoslik shundan iboratki, qadimgi turkiy qabilalarining tillaridagi leksik qatlam, tilning boshqa sathlariga qaraganda, qadimgi turkiy adabiy tilning shakllanishida katta vazifa bajargan. Qadimgi turkiy til leksikasi asosan turkiy so'zlardan iborat. O`zlashgan qatlam oz miqdorni tashkil etadi.

Qadimgi turkiy til leksikasining asosiy qismi barqarordir. Bu barqarorlikni hozirgi o'zbek tili bilan qadimgi turkiy til leksikasi qiyosida ko'rish mumkin. Garchi qadimgi turkiy tildagi grammatik shakllar o`zgargan bo'lsa-da, aksariyat so'z o'zaklari saqlangan. Misol uchun Kultegin bitigtoshining 1-satridagi parchani olib ko'raylik: *Uza k□k tānrı asra yağız yir qilintuqta ikin ara kisi □ğli qilinmiş-* yuqorida ko`k osmon, ostda qora yer qilinganda, ikkovining orasida inson bolalari yaratilgan. Bu parchadagi *asra* va *yağız* so'zlaridan tashqari barchasi hozirgi o'zbek tiliga ayrim fonetik va grammatik shakllar o'zgarishlari bilan yetib kelgan, bu so'zlarning ma`nolari saqlangan.

Shuningdek, qadimgi turkiy tildagi evfemizmlar ham ko'chimning bir turi bo'lib, noxush salbiy hodisa va harakatlarni okkazional ma`no ifodalab, anglashilgan hodisaning tub mohiyatini yashirish uchun qo'llanadi.

Antonimlar ham qadimgi turkiy tilning leksik qatlami boyishida katta ahamiyat kasb etgan. Sinonimlarning esa turli belgilari mavjud bo'lgan. Ya'ni, qadimgi turkiy tilda sinonimlarning quyidagi ko`rinishlarini ajratish mumkin:

1. O'xhatish ma`noli so'zlar sinonimlar qatorini hosil qiladi.
2. Yaqin ma`noli so'zlar sinonimlar qatorini hosil qiladi.

3. Bir tushunchani anglatuvchi yoki bir buyumni bildiradigan so'zlar sinonimlar qatorini hosil qiladi.

Ma`lum kontekstda sinonimik qator tarkibidagi u yoki bu so'zni qo'llash ekspressiv-stistik xususiyat hosil qiladi. Jumladan, *Tabğacı qağanqa alin tı̄rüs in ali birmis-tabg`ach xoqoniga davlatini, hukumatini olib beribdi*. Parchadagi *alin tı̄rus in* so'zlari bir sinonimik qatorni tashkil qilgan bo'lib, yaqin ma`noli so'zlardan hosil qilingan.

*On oq bodun amgak kırkı, acumız, apamız tutmis yar sub idisiz bolmazun tiyin az bodunuğ itip yar.. – o'n o'q xalqi zahmat chekdi. Bobomiz, ajdodimiz boshqargan yer-suv egasiz bo'lmasin deb az xalqini tartibga solib yar.. -parchada acumız, apamız so'zlari bir sinonimik qatorda joylashgan.*

**Aci-** “Devoni lug’atit-turk”(MK)da keksa ayol deb berilgan, mazkur matnda esa, bobomiz ma`nosida qo`llanilgan. Yoki **apa** so'zi “Devoni lug’atit-turk”da ona ma`nosida berilgan. Kulteginda esa, ajdodimiz deb tarjima qilinganini va shu ma`noda qo`llanilganini uchratamiz. Umumiylar tarzda ular bir-biriga juda yaqin, shuningdek *apa* qadimgi turkiy tilda faqat ona ma`nosida emas, o'zidan katta ulug'larga, yurt boshqaruvchilarga nisbatan ham qo`llanilgan.

Qadimgi turkiy til leksik qatlamida yana **antonimlarning** ham qo`llanganligini ko'ramiz. Qarama-qarshi ma`noga ega bo'lgan leksik birliklarning semantik munosabatlari ko'rinishlari antonimlardir. Qadimgi turkiy tilda ham antonimlarni belgilash mezonlari mavjud. Birinchi mezon shuki, leksik birlik kontekstda antonimlarni hosil qiladi. Shuningdek, antonimlarning zid ma`nosi konteksda o'zaro bir-biriga bog'liq holda yuzaga keladi: *Yalaň bodunuğ tonluğ, čiğan bodunuğ bay qiltim, az bodunuğ tirgiru igittim. Yalang xalqni to'ngli, qashshoq xalqni boy qildim, oz xalqni ko'paytirdim.*

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlami asosan XII asrgacha bo'lgan turkiy tillar davriga mansub. X-XII asr tilidagi leksik qatlama ayrim o'zgarishlar bor. Bu o'zgarishlar qadimgi turkiy matnlardagi oz miqdordagi arab-fors so'zlari hisobiga bo'ldi. VII-XIII asrdagi o'rxun-enasoy yodgorliklariga nisbatan X-XII asrlardagi uyg'ur-turk yozuvidagi turkiy tillar leksik qatlami boy. Bunga sabab, bir

tomondan, qadimgi turkiy tilning qo'llanish hududi kengaydi, ikkinchidan, adabiy tilning grammatik qurilishida kitobiylik ustun bo'la bordi. VII-IX asrdagi qadimgi turkiy til leksik qatlami so'zlashuv nutqiga asoslanib, unda o'g'uz dialekti yetakchilik qilgan. Bu davrda mavhum tushunchalarini ifodalash ko'p bo'lмаган, ya`ni ifoda vositalari sodda bo'lганини ko'rish mumkin.

### **1.1. Ismlar tarqqiyoti**

Qadimgi turkiy tilda ham ot turkumiga kiruvchi so'zlar ko'p. Semantik tomondan ham, grammatik tomondan ham hozirgi turkiy tillardagi singari xususiyatlarga ega. Qadimgi turkiy tilda ot turkumiga kiruvchi so'zlar kishi nomlarini (Bilga xoqon), hayvon nomlarini (qo'y, bars, bo'ri), jism nomlarini, qavm-qarindosh (og'a) va boshqa nomlarni ifodalaydi. Ot kelishik va ko'plik qo'shimchalarini oladi, boshqa turkumdagagi so'zlardan morfologik va sintaktik usul bilan ot turkumidagi so'zlar yasaladi.

**Ko'plik kategoriyasi.** Qadimgi turkiy tilda otlar ko'plik va birlik shakllarda qo'llangan. Otlar birlikda qo'llanganda maxsus ko'rsatkich bo'lmaydi. Ko'plik qo'shimchasini olmagan birlik sondagi ayrim otlar birlik, yakkalik ma'nolaridan tashqari, yana jins-tur, juftlik, jamlik va ko'plik ma'nolarini ham ifodalay oladi. Masalan, ilk (Kultegin) va boshqalar.

Qadimgi turkiy tilda otlarda ko'plik ifodalashning morfologik usuli sermahsuldir. Bular quyidagilardir:

1. -lar/-ler qoshimchasi. Masalan, *beglar*(*Kultegin*).

Bu shakl VI-XI asrlarda faqat otlarga qo'shilib kelgan bo'lsa, XI asrlardan keyin esa boshqa so'z turkumlariga ham qo'shilib kela boshlagan.

-lar/-ler qo'shimchasining kelib chiqishi to'g'risidagi har xil fikrlar mavjud. Ba`zi tilshunoslar bu qo'shimcha qadimgi mo'g'ul tilidagi "nar" so'zi bilan bog'liq desalar, ayrim tilshunoslar esa bu fikrga qo'shilmaydilar (jumladan, N.A.Baskakov).

-lar/-ler qo'shimchasini olgan so'zlar semantik tomondan hozirgi turkiy tillardan farq qilmaydi: *Ogam qatun uliyu. Ogalarim, akalarim, kelinunim, qunçuylarim bunča yama tirigi kop boltači ärti (Kultegin)*

Bu affiksning hozirgi turkiy til va lahjalaridagi –nar, -tar singari birinchi undoshi farqli bo'lган variantlari qadimgi turkiy tilda yo'q<sup>11</sup>. Otlarning ko'plik kategoriyasiga –t(d) shakli ham mansub. Bu shakl ko'proq VII-XII asrlarda uchraydi. Masalan: *tarqan* (*Tonyuquq*). *Tarqat* (*Kultegin*)- tarjimasi xonlar ma`nosida;

2. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ko'plik *-ağut* qo'shimchasi bilan ham hosil qilingan degan qarashlar bor. Biroq bu qo'shimcha bilan yasalgan so'zlar ko'plikni bildirmaydi.

**Egalik qo'shimchasi.** Otlarda so'zlovchining egalik belgisi –m qo'shimchasiidir. *k□zum, elim; so'zlovchi ko'p kishi bo'lganda –miz, -miz* qo'shimchasi qo'llaniladi.

So'zlovchi o'zi haqida so'z yuritganda, odatda, □zum deb ishlataladi va bunga qo'shimcha qilib ta'kidni kuchaytirish uchun ba`zan *ban* olmoshini ham qo'shib qo'llashi mumkin: *Kalturtim- □k turk bodunuğ Otukan yarka ban □zum bilga Tonyuquq.- Keltirdim ham turk xalqini O'tukan yerga men o'zim bilga To'nyuquq* (Ton, 17)

	<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
I sh	-m, -im;	-miz, -muz, -imiz;
II sh	-q, -uq, n';	-qiz, -qiz, -uqiz;
IIIsh	-si, -si;	-si, -si, -i;

Masalan, *sabi-* so'zi, *bodunim-* xalqim kabi.

**Kelishik kategoriyasi.** Kelishik kategoriyasi turkiy tillarning bosh qonuniyatlaridan biridir. Tilning tarixiy taraqqiyoti davomida tilimizning ichki

1. <sup>11</sup>Azimov I, Rahmatov M "Qadimgi turkiy til" T-2005;

qonuniyatlari, o'zgarishi oqibatida uning soni ba`zan o'zgarib ham turgan. Hozirgi tilshunoslikda ularning soni nechta ko'rsatilayotganidan qat`i nazar, kelishik kategoriyasi turkiy tillarda qadimdan bor, bundan keyin ham saqlanib qoladi.

Kelishik qo'shimchasi o'zbek tilida ot, otlashgan so'zlar, barcha ism guruhiga qo'shila oladi. Otlarning kelishiklar bilan turlanishi bosh kelishikdag'i holatning o'zgarishidir. Kelishiklar otlarning boshqa so'zlar bilan bo'lган munosabatini ko'rsatadi. Bu munosabat narsa-buyumning boshqa narsa-buyum bilan, yo harakat, yoki boshqa belgi bilan aloqasini ifodalaydi.

Qadimgi turkiy tilda bir kelishik o'rniда boshqa kelishik almashinib ishlatilib kelgan: *iliňa bitigdim-* davlatida bititdim (Tonyuquq), *Turgas qaǵanta kırug kaltı*-Turgash xoqondan kuzatuvchi keldi (Tonyuquq).

Qadimgi turkiy tilda 7 ta kelishik bo'lган. Ular quyidagilar:

1. Bosh kelishik;
2. Qaratqich kelishigi;
3. Jo'nalish kelishigi;
4. Tushum kelishigi;
5. O'rın-payt kelishigi;
6. Chiqish kelishigi;
7. Vosita kelishigi;

**Bosh kelishik.** Qadimgi turkiy tilda ham, hozirgi turkiy tildagidek morfologik ko'rsatkichi bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bosh kelishikda kelgan so'zning gapdag'i asosiy vazifasi ega vazifasida kelishidir. Masalan, *Bilga Tonyuquq ban ǵüm, Tabǵač elinta qilintim* (Tonyuquq)

**Qaratqich kelishigi** quyidagi variantlarga ega: *-niň, -niň, -nuň, -nün, -iň, -iň, -naň, -nän;* bu kelishikning turli ko'rinishlarda ishlatilishi singormanizm qonuniyatlari bilan bog'liqdir. So'z tarkibida lablanmagan unli bo'lsa, *-nuň, -nün;* lablangan unli bo'lsa, *niň, -niň* shakllarida qo'shilgan: boduniň, qag'aniň;

Qadimgi turkiy tilda ham qaratqich belgisiz holda qo'llanilgan: *Turk täňrisi Turk iduq yarı anča tamis.* (Tonyuquq 11)

**Tushum kelishigi** quyidagi qo'shimchalar bilan ifodalangan: -ğ, -g, -ig, -ig, -üğ, -ug, -ni, -ni, -n; masalan-su-lashkar, sug-lashkarni, tas-tosh, tashiğ-toshni, isig-ishni. Masalan, Tonyuquq bitigida: *Turk Bilga qağan turk sir bodunuğ ḥüüz bodunuğ iğidu olurur.*- Turk Bilga xoqon turk sir xalqini, o'g'uz xalqini boshqarib turibdi (Tonyuquq 62).

Bitiglardan misollar keltiramiz: *Elligig elsirtadimiz, qağanlığığ qağansıratdimiz, tızligig sikkurtımız, basligig yukunturtımız* - Davlatini davlatsizlantirdik, xoqonlini xoqonidan judo qildik, tizzasi borni cho'ktirdik, boshi borni yukuntirdik (Kultegin 18).

-n qo'shimchasining misoli: *yabğusin, sadin anta lürti* - yabg'usini, shadini o'sha yerda o'ldirildi. (Tonyuquq 41-42)

**Jo'nalish kelishigi.** -ğaru, -qaru, -ğarıü, -qaru, -karu qo'shimchasi keng qo'llanilgan: *oğüzğaru-o'g'uzga, o'g'uz tomon, yoq(q)aru-yuqoriga, ilgaru-ilgariga.* Masalan, *Öndan qağangaru su yorilim, tamiš.*- Sharqdan xoqonga lashkar yo'llaylik, debdi (Tonyuquq 29). *Tabğacğaru Qoni sanunug idmiš. Qitanğaru Toğra Samig idmiš-Tabg'achga Qo'ni sangunni yuboribdi, Qitanga Tongra Semni yuboribdi* (Tonyuquq 9).

Jo'nalishning -a (-ya), -a, (-ya) affiksi: *qağanima-xoqonimga, bodunuma-xalqimga, qanina-xoningga, inima-inimga, biriya-o'ngga, yiraya-solga. Qağanima tunup su altdim-Xoqonimga o'tinib, lashkar eltdim* (Tonyuquq 18).

-ru, -ru affiksi: *aňaru-unga qarab. -ra, -ra: tasra-sirtga, tashqariga, ičra-ichkariga, ichga.*

Eng eski yodgorliklar tiliga xos bo'lgan -ğaru, -qaru, -ğaru, -qaru, -karu belgisining qoldiqlarini hozirgi o'zbek tilida ham uchratamiz. Hozirgi tashqari, ichkari, teskari so'zlaridagi -qari, -kari qadimgi jo'nalish qo'shimchasining qoldiqlaridir. (tas-qaru, yuq-qaru). Lekin hozirgi tilimizda o'z vazifasini yo'qotib, o'zi birikkan so'zga qo'shilib ketgan. Bu so'zlar ayni holatida jo'nalish ma`nosini anglatadi. Ular tarkibidagi qaratqichning qadimgi ko'rsatkichi o'z vazifasini yo'qotganligi sabab so'zlashuvda ularga jo'nalishning hozirgi ko'rsatkichini

qo'shib ham, qo'shmay ham qo'llash mumkin: tashqari chiqdi-tashqariga chiqdi, ichkari kirdi- ichkariga kirdi, teskari o'girildi-teskariga o'girildi kabi.

**O'rinn-payt kelishigining** qo'shimchasi *-da, -da, ta, -ta* dir: *qağanta-xoqonda, tağda-tog'da, elda-elda*.

**Chiqish kelishigini** ifodalash uchun *-dan, -dan, -dün, -din, -tan, -tun, -tün, -tin, -dun, -dun* bilan bir qatorda *-da, -da, -ta, -ta* ham qo'llanilgan.

Ko'k turk bitiglarida: *Turgaş qağanta kərərug kaltı-Turgash* xoqondan ko'rvuchi keldi (Tonyuquq 29).

Qadimgi turkiy tilda hozirgida farqli holda yettinchi-**vosita kelishigi** ham qo'llanilgan. Bu kelishik belgisi *-n* bo'lib, o'zak-negizning fonetik-fonologik tabiatiga bog'liq ravishda *-in, -un, un* shakllariga ega bo'ladi. Matnlardan misollar: *Suçig sabin, yimsaq agin arip, iraq bodunug anča yagutir ärmiš-* shirin so'zi bilan, nafis ipakligi bilan avrab, yiroq xalqni shunday yaqinlashtirar ekan (Kultegin 5).

## 1.2. Fe'lllar tarqqiyoti

Fe'l so'z turkumlari orasida eng murakkab va ko'p kategoriiali turkumdir. Matnda ham nutqda ham gap so'zlovchi tomonidan tuziladi. Faqat harakat va holatning bajaruvchisi aniq hamda majhul bo'lishi mumkin. Bundan tashqari fe'l so'z turkumi orqali harakatning vaqt, ishning bajarilgan bajarilmagani haqida ham xabarga ega bo'lish mumkin. Shu ma`noda fe'l so'z turkumining keng qirrali ekanligi oydinlashadi. Qadimgi turkiy tilda, jumladan, O'rxun-Enasoy bitiglarida fe'lllarning taraqqiyoti murakkab vazifasini bajargan.

Harakat va holatni bajaruvchi shaxs aniq bo'lganda so'zlovchi birligida men, ko'pligida biz tushiniladi. Tinglovchi birligida sen, ko'plikda siz nazarda tutiladi. Bajaruvchi o'zga bir kishi bo'lganda ul, ko'pchilik bo'lganda alar nazarda tutiladi. Fe'lllar har qachon ham o'z bajaruvchisiga bo'ysunadi: ko'rinishini o'shangan qarab o'zgartiradi. Faqat fe'lning masdar shakligina (*o'qimaq, kelmak* kabi) bu qoidaga bo'ysunmaydi.

**Masdari alomati.** Turkiy masdar ikki xildir: biri-fe'l masdari, ikkinchisi-sifat yoki otga qo'shilib xoslangan masdarlar.

Fe`l masdarlaridan biri –maq, -mak qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan turidir. Bu qo'shimcha shaxs ko'rsatkichini olmagan fe`llarga qo'shib keladi: *almaq, turmaq, ketmak, kelmak*.

Fe`lning boshqa bir masdari shaxs ko'rsatkichini olmagan so'zlarga –s, (-is, -is, -us, -us) qo'shimchasini qo'shib hosil qilingan: *urus* kabi. Ismlardagi masdar yasovchilardan biri –*liq, -lik, -luq, -luk* dir.

Sonlarning *birlik, ikilik, ucluk, t̄rtluk* shakli ham ism masdariga misoldir.

Bu qo'shimcha fe`l masdarga qo'shib ism masdarini hosil qilishi ham mumkin: *almaqliq, bermaklik*.

Ismlardagi masdarning boshqa belgilari ham bor. Masalan, muddat uzoqligini bildiradi: *ayliq, yilliq, kunluk*.

**Fe`llarning yasalishi.** Qadimgi turkiy tilda fe`llar asosan quyidagi qo'shimchalar orqali yasalgan:

-*a, -a, i, -i, -u, u, -la, -la, -iq, -ik, -ad, -ad*, Ko'k turk bitiglarida: *yasa-* *yasha*; □*ta-nasihat qil*; *Qiličla-qilichla*, qilishdan o'tkaz; *Ičikdi-ichga kirdi*; *Qulad-qu qil*.

- *sıra, -sıra* affaksi, bu qo'shimcha “istash, zor bo'lish” ma`nosidagi fe`llar yasaydi.

“*Elligig elsiratdimiz, qağanlığıq qağansiratdimiz*” ( Kultegin 18) – Eli borni (elidan ayirib) eliga zor qildik, xoqonlini (xoqonidan judo qilib) xoqonga zor qildirdik.

“*Turuk bodun □lurayin, uruğsiratayin tir ermis*”- ( Kultegin 10)- turk xalqini o'ldirayin, urug'ini qoldirmayin der ekan.

**Sifatdosh** –qadimgi turkiy tilda sifatdoshlar turli ko'rinishlarda yasalgan. Masalan, ko'k turk bitiglarida ularning shunday ko'rinishlarini ko'rish mumkin: -*ǵma, -gma, keligma-keladigan*.

**Ravishdosh-** fe`lning bu shakli ravishga xoslanib, uning grammatik kategoriylarini oladi. Qadimgi turkiy tilda ham bugungi fe`llarning ham tarkibida mavjud, vazifadosh ko'rinishi bo'lган ravishdoshlar ana shunday vazifa bajargan:

-*a, -a*. Masalan: *Altun yisiğ asa kaltimiz* (Tonyuquq 37)- altun yishni oshib keldik.

-u, (-yu), -u. *Kayik yayu, tabišğan yayu artimiz* (Tonyuquq 8)- Kiyik yeb, tovushqon yeb kun kechirar edik.

-matin, -madin. *Igidmiš qağaniňin sabin almatiň yir sayu bardığ* ( Kultegin 9)- Tarbiyat qilgan xoqoningning so'zini olmayin har yerga ketding.

Turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilida gapning kesimi ko'pincha fe`ldan tuziladi. O'rni bilan,boshqa so'z turkumlari ham kesim bo'lib kelishi mumkin. Biroq, ismlar guruhiga mansub so'zlar kesim bo'lib kelganda, muhim bir hodisani inobatga olmoq kerak. Masalan, hozirgi o'zbek tilida, *bu uy cirayli* hamda *meniň niyatim su* gaplarining tuzilishiga e`tibor beraylik. Keltirilgan ikkala gapning kesimi fe`l emas. Ammo ushbu kesimlar sifat va olmoshdangina iborat ham emas. Ularda biz kesim deb sanayotgan sifat va olmoshdan keyin ta`kidni bildiruvchi mantiqiy -dir turibdi: *bu uy čirayli(dir)*; *Meniň niyatim su(dir)*. Buning singari misollarni yana keltirishimiz mumkin: ularning hammasida ham kesim o'rnida mantiqiy -dir tasavvur etiladi va bundayin “ot-kesimli” gaplarning mantiqiy kesimi yana fe`lga qaytadi.

Hozir biz qo'llayotgan -dir qadimgi turkiy tildagi tururning qisqargan shaklidir (*turur> durur/ dur> -dir*).

Qadimgi yodgorliklar tilida gapning kesimi, asosan, fe`l bo'lib keladi: *Turk bodun □lti, alqinti, yoq bolti-* Turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi (Tonyuquq 3).

Yozma yodgorliklar tilida -ol ham kesimlik belgisi bo'lib, fikr tugalligi, aniqligini bildirib keladi. Masalan, *Turk bodun yamä bulğanč - ol tamis-* Turk xalqi ham sarosimadadir,- debdi. (Tonyuquq 22)

Ko'makchi fe`llar. Yozma yodgorliklar tilida ayrim fe`llar ko'makchi fe`l vazifasida ham qo'llanadi.

Ko'makchi fe`llarning mehim xususiyati, ular qo'shma fe`l yasash uchun ham xizmat qiladi. Qo'shma fe`llar ot yoki sifat bilan ko'makchi fe`llar birikuvidan tuzilgan fe`llar ikki xil: 1) ot yoki sifat+ bol-qolipida tuzilgan fe`llar: qağan bol-xoqon bo'l, yağı bol-yov bo'l; 2) ot yoki sifat+qil-qolipida yasalgan fe`llar: qul qil- qul qil, urus qil- urush qil;

Ravishdosh bilan ko'makchi fe'l birikuvidan tuzilgan fe'llar. Bunday fe'llar bar-, ber-, id, elt-, qal-, kel-, kuru- ko'makchi fe'llari ko'magida tuziladi: adrili bar-ayrilib ket, uca bar-vafot et, tezip bar-qochib ket.

Hozirgi o'zbek tilida e- to'liqsiz fe'l bo'lib, u edi, ekan, emis, emas, esa singari shakllarda amal qiladi. To'liqsiz fe'lning edi, ekan, emis shakllari alohida qo'llanilmaydi, fe'llar bilan qo'llanilganda harakat-holatning davomiyligini bildiradi. Otlar bilan qo'llanilganda esa uni kesimga aylantiradi.

Hozirgi e- **to'liqsiz fe'li** qadimgi turkiy tilda ar-ar, uning zamon shakllari esa -erdi, erkan, -ermis, arsa shakllarida qo'llanilgan: *Turk bodun Tabgačqa kurur arti*- Turk xalqi Tabg'achga qaram edi (Tonyuquq 1).

**Bo'lishsizlik.** Qadimgi turkiy tilda ham fe'llar bolishli va bo'lishsiz shaklda bo'lган. Bo'lishli shaklda hech qanday qo'shimcha qo'llanilmagan. Bo'lishsiz shaklda esa -ma, -ma affiksini qo'shish bilan yoki *armas* yoki yuq so'zlari orqali ifodalangan. *Qilinmaduq arinc* (Kultegin), *qatun yuq bolmis arti* (Tonyuquq).

**Shaxs-son ko'rsatkichi.** Fe'llarda so'zlovchi birligining shaxs-son ko'rsatkichi -man, -men qo'shimchasidir. So'zlovchi ko'plik uchun kelasi zamon fe'llarida -biz, -biz qo'shimchasi ishlataladi. O'zga shaxs birligi -i, i qo'shimchasi bilan hosil qilinadi. So'zlovchi fe'llardagi shaxs-sonni quyidagicha ifodalaydi: birlikda: *ayur-men, kelur-men*. Ko'plikda: *ayur-biz, otunur-biz*. Tinglovchi uchun birlikda: *aldiň, keldiň*, ko'plikda: *aldiňiz, keldiňiz*.

Agar shaxs ta`kidlab ko'rsatilmoqchi bo'lsa, undan oldin kishilik olmoshi orttiriladi. So'zlovchi birlikda *men aldim, men keldim*, ko'plikda *biz keldik, biz aldiq*. Tinglovchi birlikda *sen aldiň, ko'plikda: siz aldiňiz*.

*Ol sub qudi bardımız, sanağali tusurumuz, atığ iqa bayur ertimiz... kun yema, tun yema yelu bardımız. Qirqiziğ uqa basdimiz.* –Ul suvning qujisiga bordik. Qirqizni qo'qqisdan bosdik (Tonyuquq 27).

Umuman olganda, qadimgi turkiy tilda fe'llar taraqqiyoti mana shu kabi o'ziga xosliklarga ega bo'lgan. Ularning ayrim o'zgarishlarga uchragan ko'rinishlari bugungi kunda ham iste`molda ekanligi turkiy tillarning o'zaro aloqalarashuv jarayoni uzoq yillar mobaynida davom etib kelganidan dalolat beradi.

### 1.3 Yordamchi so'zlar taraqqiyoti

Hozirgi o'zbek adabiy tilida uyushiq bo'laklar hamda juft so'zlarda ishlatiladigan va yoki –u bog'lovchilarning o'rnida qadimgi turkiy tilda ...li bog'lovchisi qo'llanilgan. Misol : *Saqintim, turuq buqali samiz buqali arqda bilsar, samiz buqa, turuq buqa tayin bilmaz armis.* –(So'ng) o'ylab qoldim: “(Birov) turuq buqa deya bilmas emish [ya`ni semiz bilan turuq buqani ajratolmas ekan]” (Tonyuquq 5-6).

Hozirgi “goho” bog'lovchisining o'rnida *ara* bog'lovchisi qo'llanilgan.

Hozirgi o'zbek tilida –ki bog'lovchisi ergash gapni bosh gapga bog'lashga xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida –ki bog'lovchisi fors tilidan o'zlashgan, sodda gaplari –ki bog'lovchisi bilan birikkan qo'shma gaplarni forsiy qolipda yuzaga kelgan, deb qarovchilar ham bor.

#### Ko'makchilar

Ko'makchilar vosita, maqsad, sabab, vaqt, makon va shu kabi munosabatlarni bildirish uchun qo'llanadigan so'zlardir.

Yodgorliklar tilida *birla~ bila, učün, uza~uzra, ičra, ičinda, ara, basa, qat, burun, tegin* ko'makchilari qo'llanilgan.

**Uza** ko'makchisi: *Toquz oğuz bodun uza qağan olurti, tir.* To'quz o'g'uz xalqi ustidan (bir) xoqon taxtga o'tirdi, -der (Tonyuquq 9).

**Tegin** ko'makchisi: *Qirq yilqa tegin bay čiğay tuzlanur-* Qirq yilgacha boy bilan kambag'al tenglashadi.

“So'ng” ma`nosida *soň, basa, □tru* so'zlari, hozirgi “keyin” so'zining o'rnida *kedin, kena* so'zlari qo'llanilgan.

Hozirgi turkiy tillarda ko'makchilar gapdagi so'zlar o'rtasida bo'lган turli-tuman munosabatlarni ifodalashga xizmat qilgani kabi, qadimgi turkiy tilda ham ana shunday ma`nolarda qo'llangan.

Ko'makchilar grammatik ma`no ifodalashi jihatidan kelishiklarga yaqin turadi. Ba`zan kelishik shakli bajargan funksiyani bajarishga xizmat qiladi.

Shunga ko'ra qadimgi turkiy tildagi ko'makchilarni sof ko'makchilar va vazifadosh ko'makchilar deb ikki guruhg'a bo'lishgan.

**Sof ko'makchilar.** Qadimgi turkiy tilda *birla, ičinta, iya, uza, sari, sayin* kabi sof ko'makchilar bo'lgan.

**Birla, bila** ko'makchisi matnda bosh kelishikda bo'lgan so'z bilan birgalikda qo'llanganda biror ish-harakatning bajarilishidagi birgalikni, birga ishtirok etganlikni, aloqadorlikni, daxldorlikni, shuningdek vosita qurolni ish-harakat jarayonining birin-ketin ro'y bergenligini, harakatning bajarilishidagi belgi, holatni va shunga o'xhash ma`nolarni ifodalaydi. Masalan, *ačim qağan Birla ilgaru yashil □guz Šantuň yaziqa tagi suladimiz.* (Kultegin)

**Birla, bila** ko'makchisi turli kelishik shaklida kelgan so'zlar bilan qo'llanadi. Masalan: *Qağanın birlä soñ usmis.*

**Učun** ko'makchisi. Bu so'z asarlarda to'liq shaklda qo'llanilgan va uning qisqargan shakli bu davr tilida uchramaydi. *Učun* ko'makchisi bosh kelishik shaklidagi so'zdan keyin kelganda, u matnda sabab, vaj, bois, ish-harakat jarayonining biror shaxsga atalganligi, predmetga tegishliligi, ish-harakatning maqsadini bildiradi. Shuningdek, ergashgan qo'shma gap tarkibidagi ergash gapning sababini yoki natijasini bildirish uchun xizmat qiladi: *baglari boduni tuzsız üçun. Anta kisra tāńri yarlıqaduq üçun qağan boltim.* (Tonyuquq)

**Vazifadosh ko'makchilar.** Vazifadosh ko'makchilar barcha so'z turkumlaridan emas, balki ot, fe'l, ravish so'z turkumlari orqali ifodalanadi. Bu so'z turkumlaridan bo'lgan ko'makchilarning miqdori teng emas. Ot so'z turkumiga nisbatan, ravish so'z turkumida kamroq, ravishga nisbatan fe'l so'z turkumida kamroq uchraydi. Shunga ko'ra vazifadosh ko'makchilarni uch xilga bo'lish mumkin: 1.Ot ko'makchilar, 2. Fe'l ko'makchilar 3. Ravish ko'makchilar

1. Ot ko'makchilar. Ot ko'makchilar yuqorida qayd etilganidek, ma'lum o'rnlarda ot vazifasida kelsa, ayrim o'rnlarda esa, ko'makchi vazifalarida qo'llanadi. Ot ko'makchilar, jo'nalish, o'rin va chiqish kelishiklarini olib, matnda ot vazifasini yo'qotadi va ko'makchi vazifasida qo'llanadi. O'zidan oldin kelgan so'zga nisbatan tobeklik munosabatida bo'ladi.

Qadimgi turkiy tilda *bas, ald, ast, yuz, arqa, qat, ustunta, sinar, artu* kabi so'zlar qo'llangan.

**Bas** ko'makchisi. Bu ko'makchi kelishik qo'shimchasini olib, *basinta*, *basida*, *basintin*, *basa*, *basi* kabi shakllarda qo'llangan. Bu shakllarda qo'llanganda o'rin, tomon, chiqish joyi, biror narsani ajratib ko'rsatish ma`nolarida qo'llanadi. Masalan: *čüš bašinta suňustim.* (Kultegin)

### **Yuklamalar.**

Yuklamalar so'z va gapga qo'shimcha ma`no yuklaydi. Ular so'roq, taajub, kuchaytiruv va ta`kid, ayiruv, inkor ma`nolarini bildiradi. Qadimgi turkiy tilda yuklamalar ikki xil ko'rinishda uchraydi: qo'shimcha shakliga kelib qolgan yuklamalar va so'z-yuklamalar.

yama yuklamasi ta`kidni bildiradi: *Altaris qağan qazğanmasar, udu ban □zum qazğanmasar, al yama, bodun yama yoq artaci arti, qazğantuqin ucun, uduğuzum, qazğantuqim učun al yama al bolti, bodun yama bodun bolti.*- Eltarish xoqon zafar qozonmaganida, uning bilan mening o'zim zafar qozonmaganimda, yurt ham, xalq ham, yo'q bo'lar edi. (Xoqon) zafar qozongani uchun, mening hushyorligim, zafar qozonganim uchun, el ham el bo'ldi, xalq ham xalq bo'ldi. (Tonyuquq 54-56)

### **1.4. O'zlashmalar va ularning tadriji**

Xitoy va markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk o'rta asrlar o'zaro kelishmovchiliklar, urush va bosqinlar bilangina ma'lum emas. Bu kezlar Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasida madaniy, adabiy aloqalarning rivojlanishi, ijtimoiy, savdo munosabatlarining o'rnatiluviga keng yo'l ochildi. Ushbu aloqalar ikki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyoti, uluslar birdamligini ta`minlab berdi.

Xitoy bilan Markaziy Osiyo ellari, xususan, turk davlatlari o'rtasida kechgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy madaniy, adabiy aloqalarni o'rganishda qadimgi turkiy bitiglarning o'rni kattadir. Ko'k turk yozuvlari o'rxun bitiglari, uyg'ur yozuvidagi qadimgi turk manbalarida ushbu madaniy jarayon to'g'risida keng va to'liq xabar berilgan.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda Xitoy eli, yurtini *Tabğac* (~*Tawğac*), *Tabğac* eli atalgan, xitoy xoqoni -*tabğac qağan*, xitoy xalqi esa- *tabğac bodun*, xitoy tilini *Tabğac tili* deyilgan.

Birinchi va ikkinchi ko'k turk xoqonliqlari, keyinchalik uning o'rnida yuzaga kelgan uyg'ur xoqonligi va davlatlarida xalqaro mavqega ko'tarilgan sug'd, xitoy tillariga e`tibor katta edi. Ayniqsa, monumental matnlarni bitishda, turkiy til bilan barobar, sug'd, ora-chora, xitoy tilidan ham foydalanilgan. Buning yorqin misolini 732-yili sarkarda Kultegin xotirasiga tiklangan yodgorlikda kuzatishimiz mumkin. Yodgorlikning to'rtala yuzida yozuvi bor: Sharqqa qaragan yuzi, ikki yoni, toshning qirralariga ko'k turk harflari bilan turkiy matn bitilgan; G'arbg'a qaragan yuzidagi matn esa xitoycha. Yodgorlikdagi turkiy matnni ko'k turk adabiyotining yirik namoyondasi, yozuvchi va tarixnavis Yo'llig' tegin bitgan. Xitoycha matnning muallifi esa Xitoy generali Changdir. Ushbu matnni u xitoy imperatorining ko'rsatmasiga ko'ra yozgan. Turkiy bitigda uning oti *Čaň săňün* deya qayd etiladi. Otiga qo'shilayotgan *siňün* so'zi uning harbiy unvoni bo'lib, "general" degan ma`noni beradi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay, 735-yilda Bilga xoqon xotirasiga tiklangan yodgorlikda ham xitoy eli e`tibordan chetda qolgani yo'q. Ushbu qabrtoshning Sharqqa qaragan yuzi va ikki yonidagi matn turkiy tilda. G'arbg'a qaragan yuzida esa xitoycha matnning o'rni bor. Biroq, tosh parchalanib ketgani uchun xitoycha yozuvi hozir saqlangan emas.

Shu o'rinda ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan til vaziyati bilan bog'liq muhim bir hodisani ta`kidlash kerak. Ma'lumki, tarixiy yodgorliklarning bir yo'la bir necha tilda yozilishiga ayni ellardagi til vaziyati ham sabab bo'lган. Qadimda O'rta va Markaziy Osiyoning turli yerlarida, turklar bilan aralash yashagan sug'd, tohar, qadimgi xorazm muhitida turk-sug'd, turk-tohar, turk-arab bilingvizmi amal qilgan, deya olmaymiz. Bizningcha, turkcha matnlarda xitoychaning aralash ishlatalishi, ko'proq, siyosiy vaziyat, davlat siyosati, qolaversa, Xitoy davlatining ta`siri va xitoy tilining xalqaro maydonda tutgan o'rni bilan belgilangan.

Yana bir jihat, butun Markaziy Osiyonи kesib o'tgan Buyuk ipak yo'lida turkiy hamda sug'd tillari xalqaro til sifatida amal qilgan, ammo xitoy tili ushbu savdo yo'lida, o'zaro munosabatlarda xalqaro mavqega erishgan deya olmaymiz.

Xitoy va Markaziy Osiyo munosabatlari tarixida buddizm davri ajralib turadi. Ilk o'rta asrlarda O'rta va Markaziy Osiyoda buddizmning yoyilishi sharq xalqlarining madaniy va adabiy aloqalari, sharq tillarining o'zaro ta'sirini ta'minlab berdi. Ushbu ijtimoiy-tarixiy, madaniy jarayon, xususan, turkiy xalqlarning qadimgi xitoy madaniyati bilan yaqindan tanishuviga, adabiy aloqalarning rivojlanushi, turkiy dunyoda xitoysenoslikning fan sifati yuzaga kelib, taraqqiy etishiga imkon tug'dirdi.

Turkiy muhitga buddizmning tarqalishi, boshlab tarjimachilik sohasida katta burilish yasadi. Turkiy xalqlar buddizm diniga sig'ingan chog'larda xitoy tilidan qadimgi turkiy tilga ko'plab diniy-falsafiy, tarixiy, badiiy asarlar, tabobatga tegishli kitoblar tarjima qilingan. Vaziyat taqazosi bilan turk o'qimishlilari ichidan xitoy tilining bilimdonlari, sharqshunos olimlar yetishib chiqdi.

Qardosh bo'limgan tillardan o'zlashgan so'zlar haqida gap borar ekan, bunda sug'd, arab, hind, xitoy va yunon tilidan o'tgan leksik elementlarni nazarda tutamiz.

Hozirgi O'rta Osiyo, Qozog'iston va Sibirda, hatto Yevropada yashagan qadimgi turkiy xalqlar o'zlariga yaqin bo'lgan fors-tojik, arab, hind, xitoy va grek xalqlari bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lgan. Ana shu aloqa turkiy til leksik qatlaming boyishiga ta'sir qilgan.

O'rganilayotgan tilda fors-tojik, arab, hind, yunon va xitoy tillaridan o'zlashgan so'zlarni uchratish mumkin.

**Fors-tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlar.** Tarixdan ma'lumki turkiy xalqlar qadim zamonlardan sug'd yoki fors tilida gaplashuvchi xalqlar bir hududda yashaganlar. O'zaro aloqalar natijasida O'rta Osiyoning ayrim joylarida yashovchi xalqlarda ikki tillik paydo bo'ladi. Yozma obidalar tilida sezilarli darajada sug'd tilidan o'zlashgan so'zlarni uchratish mumkin.

Kultegin bitigtoshida aka, aca-(qon-qarindoshlik), so'g'd, *tazik*(etnonim) *baz* (onomostika) kabi so'zlar uchraydi, xolos.

Qadimgi turkiy tilda, oz bo'lsa-da, hind tilidan o'zlashgan so'zlar ham uchraydi. Bunday so'zlar ko'proq uyg'ur tilidagi obidalarda, qisman Kultegin bitigtoshida uchraydi.

Qadimgi turkiy tilning sintaktik qurilishi ham ma'lum qolipga ko'tarilgan bo'lib, so'z birikmalarining turlicha ko'rinishlari, so'zlarning sintaktik aloqaga kirishi, gap bo'laklari ularning ifodalanishi va tartibi jihatidan hozirgi turkiy tillarga ancha yaqin turadi.

## II. BOB. LUG`AVIY BIRLIKLARNING MAVZU GURUHLARI

### 2.1. Toshbitiglarda maishiy leksikaga oid so'zlar guruhi

Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamiga toponimlar, etnonimlar, tabiat hodisalarini bildiruvchi leksemalar, mansabni bildiruvchi leksemalar, gidrotoponimlar, onomastika, zoonimlar, qarindoshlikni bildiruvchi terminlar, kosmik jismlar nomlari, somatik so'zlar, kiyim-kechak nomini bildiruvchi so'zlardan iboratdir. Shular orasida maishiy sohaga oid bo'lgan so'zlar ham uchraydi. Biz tadqiqotlarimiz natijasida ularning aksariyati qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar ekanligini aniqladik. Qadimgi turkiy tilning lug'at tarkibida qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar ham o'z hajmi, ma`no-mazmuniga ega bo'lgan.

Yozma obidalar tilida uchraydigan yaqinlik yoki qavm-qarindoshlik tushinchasini ifodalovchi so'z-terminlar ham ma`lum bir sharoitda paydo bo'lgan. Bu so'z-terminlar qanchalik turg'un bo'lmasin, davrlar o'tishi bilan rivojlanadi, o'zgaradi va adabiy shaklga siljiydi. Aniqrog'i oila, nikoh munosabatlarining yangicha ko'rinishga o'zgarishi tildagi shu ma`noda qo'llanuvchi so'zlarga o'z ta'sirini o'tkazadi, doirasi ham kengayadi. Qadimdan faol ishlatilib kelgan bu sohaga oid so'z-terminlar arxaiklashib qolishi va uning o'rnida boshqa qardosh bo'lмаган tillardan o'zlashgan so'zlar ishlatilishi mumkin. Buning natijasida, qadimdan ishlatilib kelayotgan so'z esa nofaol leksikaga aylana boshlaydi.

Yozma obidalar tilida *qan* (*Kultegin*), *g*, *siňil*, *ğul*, *ini*, *čoluq*, *ar*, *aka* (*Kultegin*), *qatun*, *ingun* (*qarindosh*), *yigun* (*jiyan yoki nabira*), *äči* (*amaki*) (*Tonyuquq*) va boshqa shunga o'xhash qavm-qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar uchraydi. Ularni leksik-semantik tomondan quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Qon-qarindoshlik atamalari;
2. Nikohdan keyin yaqinlikni bildiradigan atamalar;

**Qon-qarindoshlik atamalari.** Bunga *qan*, *aci*, *yigun*, *ini*, *siňil*, *ğul*, *uri* kabilarni ko'rsatish mumkin.

*Qan* atamasi VI-X asrlar yozma obidalarida *ata*, *qan* va *ede* shakllarida qo'llanilgan bo'lsa, X-XI asrda ham xuddi shunday ishlatilgan. Ammo XI- XIV

asrlarda *aba* shakliga o'zgargan. *Ata* termini farzandli, bola-chaqali er kishilarni bildirgan.

*Og* atamasi ham turli xil ko'rinishlarda qo'llanilgan. VI-X asrlar yozma obidalarida *eg* shakllarida qo'llanilgan bo'lsa, X-XI asrda *ana* shaklida ishlatilgan. Ammo XI- XIV asrlarda *aba*, *ana*, *apa* shaklida qo'llanilgan. Ona termini farzandli kishilarni bildirgan.

*Ini* termini. Bu so'z akaga nisbatan kichik degan ma`noda qo'llanilib boshlagan va uning qarindoshlik ma`nosi keyinchalik shakllangan.

*Qiz* termini ayol jinsiga mansublikni ifodalagan. O'rxun yodnomlarida *qiz* □*gul*, ya`ni qiz bola ma`nosida ishlatilgan. X-XIV asrlarga kelib esa mazkur so'zning ma`nosi kengaygan.

**Nikohdan keyin paydo bo'ladigan qarindoshlik terminlari.** Nikoh erxotinlikni rasmiylashtirishdir. Bu turdag'i terminlarga *är*, *qatun*, *avluğ*, *kishi* va boshqa shunga o'xhash so'zlar kiradi. *Ar* so'zi boshchi ma`nosida qo'llanilgan, XIV asrlarga kelib uning mard, jangovar degan ma`nolari paydo bo'lган. *Qatun* (*xatun*) terminining *uzuk*, *uranğut*, *arin* va *avluğ* kabi ko'rinishlari ham ishlatilgan.

Shuningdek O'rxun-Enasoy obidalarining maishiy leksikasida ilohiylikni bildiruvchi so'zlar ham faol qo'llanilgan. Jumladan, yodgorliklarida «Tangri-tek-Tangri» birikmasi uchraydi, uning ma`nosi ham Tangrining tanholigini e`tirof etishdir. Tangri – tek-Tangri – osmondek Tangri yoki Ollohdék Olloh, Ollohga o'xshaydigan Olloh deyilishida Tangrining qiyofasi uchun hech bir sifat, o'xshatish yo'q, u faqat Tangrining o'ziga o'xshaydi, degan qarash ifodalangan. Ko'kning Tangri sifatida qabul qilinishi, ko'k qobig'idagi osmoniy jismlarning ham muqaddasligini belgilaydi. Masalan, 1.Tangri toq. Tangridan bo'lган , Turk Bilka qag'an bu yerga o'lturdim. 2. Yuzada Ko'k Tangri, Ostda qora yer qilindi. Ikkisi aro kishi o'g'li qilindi.

Ko'k tangri turkiy qavmlarning eng qadimiy dinidir. Ularning fikricha, ko'k yuzi Tangri bo'lib, u falakning, yerning hukmdoridir. Quyosh, oy va yulduzlar Tangrining atrofidagi ko'kning yuziga joylashgan muqaddas tushunchalardir. Ko'k Tangri zaminga hayot, odamlarga jon beradi, istasa qaytarib oladi. Hatto turk

xoqonlari ham Ko'k Tangrining xohishi bilan taxtga o'tiradilar. Professor N.Rahmonov «Ko'hna bitik toshlar» kitobida keltirishicha, «*Sibirdagi turkiy va boshqa xalqlar tilida ham Tangrining ilohiy mazmuni va osmon ma'nosi saqlangan. Masalan, evenklar tangara deb osmon va xudoni aytadilar*»-degan ma'lumotlarni uchratamiz.

Qadimgi turkiy tilda, xususan, o'rxun yodgorliklari tilida *bod* so'zi ko'p uchraydi. Bu so'z “urug”, qabila” ma'nosini bildiradi. Mazkur so'z yana shu ma'nosidan tashqari “tana”, “qomat”, “bo'y” ma`nolarini ham bildirib, omonim shaklida ham faol ishlatilgan.

Toshbitiglarda e`tiborli bo'lган yana bir tomon mavjud bo'lib, matnlardan qadimgi turkiy til leksikasi asosan turkiy so'zlardan iborat bo'lганligi anglashiladi. O'zlashma qatlamlar esa, atoqli otlardan ma'lum bir diniy tushinchalarni ifodalovchi so'z va terminlardan iborat bo'lган xalos.

## **2.2. Bitigtoshlarda harbiy sohaga oid so'zlarning qo'llanilishi**

Bir necha yuz ming yillarni go'yo tilsizdek boshdan kechirgan va o'z avlodlariga biror ajdodining na ismi, na shaxsi haqida bat afsil ma'lumot qoldirish imkoniyatini topa olmagan insoniyat, nihoyat bundan besh ming yil oldin yozuvni kashf etdi. U asrlar osha og'izdan og'izga ko'chib kelayotgan haqiqat-u affsonalarni turli ashyo va buyumlar sirtiga muhrlab, kelgusi nasllar uchun bebahо xazina tuhfa etish kabi muqaddas burchni bajarish baxtiga musharraf bo'ldi. Faqat shu davrdan boshlabgina kelajak nasl yozuv vositasida ov marosimlari-yu jangu jadallarda mahorati tufayli o'z jamoasining yo'lбoshchisiga aylangan oqil-u dono bilgalar, dovyurak bahodir alplar haqidagi xotiralardan xabar topishdi.

Qadimgi turkiy til leksikasi haqida gapirganda, ko'plab bahsli fikrlarga duch kelamiz. Chunki turkiylar qadimdan boshqa xalq vakillari bilan birgalikda yashab hayot kechirishgan. Buning ta'sirida sof turkiy so'zlar boshqa xalq vakillari tili bilan chatishib ketgan, natijada asl ko'rinishidan uzoqlashgan. Lekin shunday bo'lsada bu tilga xos ba'zi belgilarga asoslanib ular haqida ma'lum xulosalar chiqarish mumkin. Ko'hna turkiylar haqida biz ko'proq xitoy manbalari orqali

ma'lumotlarga ega bo`lamiz. Sababi turk zodagonlari, ularning o'g'illari xitoy imperatori saroylarida garovga olinib, ularga xitoycha nom berilgan, xitoycha o'qitishgan hamda xitoyparastlik ruhida tarbiyalashgan. Shu tufayli ham ko'pchilik turkiy ismlar, so'zlar xitoy tiliga aynan yoki o'zgartirishlar bilan tarjima qilingan. Qadimgi turkiy tilning leksik qatlamida bir qator so'zlar harbiy sohaga va davlat tuzilishiga oid so'zlar ekani ko'rindi. Bu so'zlar xitoy tilidagi manbalarga o'tib saqlanib qolgani uchun, ularning fonetik qiyofasi o'zgarishga uchragan. Xitoy tilining monosyllabik til bo'lgani bunga sababdir. Turkologlarning kuzatishlaricha, qadimgi turkiyicha ism va unvonlardan bir yuz saksontasi miloddan oldingi V asr oldingi xitoy yozma yodgorliklarida saqlanib qolgan. Shuningdek, xitoy yilnomasi "Xan shu"da turkiy tildagi bir bayt ham bor. Bu baytning boshlanishida ceng-li kuntu Shan-yu jumlesi uchraydi. Ular quyidagicha ma`no ifodalaydi: ceng-li- "osmon" ma`nosida, ku-tu- o'g'il ma`nosida, Shan-yu "keng", "buyuk" deganidir. Mazkur jumla "Osmon o'g'li buyukdir" degan ma`noni anglatib, jumla Chin xoqonlari unvoni sifatida ham qo'llanilgan. Jumladagi birinchi so'z "ceng-li" qadimgi turkiy tildagi "osmon va xudo" ma`nosida qo'llangan "täñri" so'zining fonetik o'zgargan shakli degan turkologlarning qarashlari ham mavjud.

Qadimgi turkiy til an`analariga ko'ra, harbiy kishilar, ayniqsa hukmdorlar bolalik ismi bilan emas, harbiy salohiyati va insoniy fazilatiga qarab laqabi bilan aytilar yoki ularga ulug'lovchi so'zlar bilan murojaat qilishardi. Shu bois, yozma asrlarda tilga olingan aksariyat turkiy hukmdorlar va lashkarboshilarning ismlariga aslida ularning asl ismi emas, balki taxallusi yoki kuniyasi sifatida qarash lozim. Xullas, turkiy xukmdor yoki, lashkarboshining asl ismini aniqlash ancha mushkul.

O'rxun-enasoy obidalari tarkibidagi sarkarda Tonyuquqqa bag'ishlangan bitigtoshda Tonyuquq nomida ham shu holatni kuzatish mumkin. Ismning birinchi qismi, hozirda bir qator turkiy so'zlarda saqlanib qolgan, qadimgi turk tiliga xos "tun" – "ilk, ulug'", bosh, katta" so'zi bilan aloqador bo'lib, o'zbek tilidagi xuddi shu ma`nolarda qo'llaniluvchi ***to'ng'ich*** so'zining negizi ham ***tun*** so'ziga borib taqaladi. Qadimgi turkiy davlatchilik an`analariga ko'ra, har bir amaldor, xoh u xoqon bo'lsin, xoh quyi darajali lavozim egasi bo'lsin, ularning ismi oldiga

bahodur, alp, bilga kabi epitetlarga o'xshab tun so'zi ham qo'shib aytilar va shu asosda bir xil unvonga ega amaldorlar darajasiga ko'ra farqlanardi. Jumladan, “*ban □zum bilga tonyuquq Otukan yerig qonmis*, ya`ni *men o'zim bilga Tonyuquq O'tukan yeriga qo'nibdi*” -mazkur o'rinda *bilga* ya`ni “aqli, dono, bilimli” ma`nolarini ifodalagan laqab, taxallus ko'rinishidagi so'z qo'llanilgan. Kezi kelganda aytib o'tish kerak, tun so'zi hozirgi tilimizdagi “kecha, kechqurun” ma`nosidagi tun so'zidan farqli bo'lib, undagi u unlisi qattiq talaffuz etilgan. Tilshunoslikda “ilk, to'ng'ich” ma`nosidagi *tun* so'zi **tun** tariqasida, “*kecha*” ma`nosidagi tun so'zi esa **tun** shaklida transkripsiya qilinadi. Bu birinchi so'zning yumshoq, ikkinchi so'zning esa qattiq talaffuz qilinishi bilan bog'liq. Tonyuquq so'zining lug'aviy ma'nosи haqida turlicha fikrlar bor. **R. Jiro** bu ism *toni yuquq* (kiyimi yuqlik) degan so'zdan olingan deydi. **V. M. Nadelyayev** o'zining shu masalaga bag'ishlangan maqolasida bu nom *tuyuq-o'q* (tuyoq o'q) so'zlaridan iborat deb ko'rsatadi. Turk olimi **Ali Ulvi Elove** “Turk dili arastirmalari yilligi” (Ankara,1958) da nashr qilingan “Bir yazi maselesi uzirine” degan maqolasida mazkur ot **tun** (birlamchi, to'ngich), **y□q-(yuksal)** va **uq** (ot yasovchi qo'shimcha)dan iborat deydi. Leningradlik olim S.G Klyashtorniy bu fikrga ikkinchi element *oq* saqlamoq, qadrlamoq ma`nosidagi fe`lning o'zagi deb tuzatish kiritadi va To'nyuquqning asl lug'aviy ma'nosи “***to'ng'ich javhar***” degan xulosaga keladi. Shundan aniqlashadiki, keyingi ikki olimning fikrlari asosiy xulosaga kelishimizga yordam beradi.

Qadimgi turkiy tilda yana “***yabğu***” so'zi ham laqab-taxallus sifatida qo'llanilgan. Bu so'z Turk xoqonligida bosh xukmdor-xoqondan keyin turuvchi , aniqrog'i uning o'rinosariga nisbatan qo'llanilgan. O'sha davrlarda turk xoqonligining eng oliy hukmdoriga nisbatan xoqon atamasi ishlatilgan. *On oq qağani yağıımız ärti* – O'n o'q xoqoni dushmanimiz edi.

**Xoqon** unvonini sharqdagi bosh xoqonlik markazi O'rxunda bo'lган hukmdorlar qo'llashga haqli bo'lib, xoqonlikning g'arbiy qanoti bo'lmish G'arbiy turk xoqonligi hukmdorlari esa yabg'u-xoqon unvonini ishlatishar va shu tariqa ular markazga bog'liqligini ifodalashar edi.

Shuningdek, turk xoqonligida yana *eltabar*, *tudun*, *ayg'uchi*, *yarchi*, *apatarxan* singari unvonlar ishlatilgan.

**Eltabar** unvoni “endi davlatni tutib turuvchi” degan ma`noni anglatgan. Xitoy yilnomalarida ta`kidlanishicha, bu unvon katta-kichik vohalarni boshqaruvchilarga berilgan. *Tudun* unvoni esa xoqonlikning boshqaruv tizimiga xos unvonlardan biri sifatida “bo’ysundirilgan o’lkalardan soliq yig’ishni tashkil qiluvchi mahalliy hukmdor ustidan nazorat etuvchi”, ya`ni noib ma`nosida bo’lgan. Ayg’uchi esa vazir, maslahatchi, sarkarda ma`nolarida bo’lib, ko’pincha maslahatchi ma`nosida ishlatilgan: *qağani alp ärmish*, *ayğuçisi bilgä ärmish*-xoqoni qahramon ekan, maslahatchisi alloma ekan. Bu sifat o’rxun-enasoy obidalaridan biri Tonyuquq bitigtoshida Tonyuqquqqa nisbatan qo’llanilgan. Manbalarda qayd etilishicha Tonyuquq mazkur bitigtoshni o’zi yozdirgan. Xitoy yilnomalarida u Yuanchjen deb berilgan.

**Yarchi** –yo’lchi, yo’l boshlovchi, yer biladigan kishi degani: *yarchi tiladim*-yerchi surishtirdim.

**Apatarxan** –bosh qo’mondan degan ma`noni bildiruvchi unvon: *apatarxanğaru ičra sab idmis-apatarxanga maxfiy gap yuboribdi*.

**Apa** so’zi “Devoni lug’atit-turk”da ona ma`nosida berilgan. Kulteginda esa, ajdodimiz deb tarjima qilinganini va shu ma`noda qo’llanilganini uchratamiz. Umumiy tarzda ular bir-biriga juda yaqin, shuningdek apa qadimgi turkiy tilda faqat ona ma`nosida emas, o’zidan katta ulug’larga, yurt boshqaruvchilarga nisbatan ham qo’llanilgan.

**Xotun-** malika degani. Turkiy sulolalarda hukmdorning ayoli shunday nomlangan. U xoqon bilan birgalikda davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan. Qadimda turk xoqonliklarida zarb qilingan tangalarda ayol tasvirining berilgani ham shu bilan izohlanadi. Xotunlarga atab xotunkat- malika shaharlari qurilgan. Turk xoqonliklarida ayol kishi nihoyatda e`zozlangan. Tonyuquq bitigtoshida shunday qatorlar bor: *Qatun yoq bolmis arti, ani yoslatayin tadi-* xotun yo’q bo’lgan edi, uning marosimini o’tkazay dedi. Harbiy yurishga otlangan paytda xotunning vafoti va uning marosimini o’tkazmay ketishga xoqon jazm qilmaydi.

Bu holat ham ayollarga bo'lgan e`tiqoddan dalolatdir. Shuningdek, qadimgi turkiylar e`tiqodida Umay ismli iloha o'rinni olib, u qut-baraka homiysi hisoblangan va homiladorlikni, bolalarni hamda jangchilarni qo'riqlovchi iloha sifatida talqin etilgan. Mahmud Qoshg'ariy Umay so'ziga shunday izoh beradi: "xotin kishining ichidan tushib bo'lganda chiqadigan qopchiqqa o'xshash narsa. U bolaning qorindagi egasi deyiladi. "Umayqa topinsa o'g'il bo'lur" degan masal bor. Ma`nosi o'shangacha xizmat qilgan o'g'il ko'radi. Xotinlar shunga e`tiqod qilishadi". Qizig'i shundaki, hozirda ham Umay yoki Umay ona deb ataluvchi ushbu ilohanining ramzlaridan biri uzun uch qirrali qalpoq bo'lgan. Demak, ayollarga bo'lgan bunday e`zoz, hatto xoqonlik tangalarida aks etgan malikalarning tasviri bejiz emas. Boshqaruv ishlarida doimo xoqonga hamroh bo'lgan malika-xotun ramziy ma`noda Umayga mengzalgan. Zero, qadimgi bitigtoshlardan biri Kulteginda "Umayteg □gum qatun qutiga inim Kultegin er at boldi", ya`ni "Umaydek onam xotun qutiga(baxtiga) inim Kultegin er yigit degan nom topdi" jumlalarining uchrashiyoq bu fikrni tasdiqlab turibdi.

Shu o'rinda **tegin** nisbasiga ham to`xtalib o'tsak. Yuqorida Tonyuquq atamasi haqida gapirganimizda qadimgi turkiy davlatchilik an`analariga ko'ra, har bir amaldor, xoh u xoqon bo'lsin, xoh quyi darajali lavozim egasi bo'lsin, ularning ismi oldiga bahodur, alp, bilga, tegin kabi sifatlashlar qo'shib aytilganini ta`kidlagan edik.

**Tezin** shahzoda degan ma`noni anglatadi. Qadimgi turkiylar ashina sulolasiga mansub shaxslar uchun mazkur unvonni ishlatishgan. Qadimda turkiy xalqlarning madaniyat markazlarida turk shahzodalari tomonidan *Tezin-shoh* ibodatxonalari qurdirligani. Tezin nomlari bilan mahalliy xalqlar tilida tangalar zarb qilingan.

Bundan ikki ming yil muqaddam Rim tarixchisi Pompey Trog Turon xalqi va uning o'tmishi haqida yozib, bu yurt "qadimiylidka Misrdan qolishmaydi" deya e`tirof qilgan. Demak, o'n mingylliklardan iborat Misr tarixi bilan Turon tarixi bemalol bellasha olar ekan. Ana shu ko'hna tarix, afsuski, Misrdagidek bizga to'la yetib kelmag'an. Lekin shunday bo'lsada, bugungi ilm taraqqiyoti qadimiy

tariximizni yoritishda ulkan imkoniyatlar yaratgan. Turkiy xalqlarning necha ming yillik hayoti, o'ziga xos yashash tarzi va alp, bahodir farzandlarining faoliyati haqidagi izlanishlar davomlidir.

*Bilga xoqon bitigtoshida harbiy sohaga oid so'zlarning qo'llanilishi*

Mazkur marmar bitigtosh Eltarish xoqonning o'g'li, Kulteginning og'asi Bilga xoqon (Asl oti xitoy yilnomalarida Mog'ilyon deb berilgan) sharafiga 735-yilda qo'yilgan. Bilga xoqonni 734-yilda ellik yoshida o'z urug'laridan biri zaharlab o'ldiradi. Bu bitigtosh Qul teginnikidan 1km janubi g'arbg'a o'rnatilgan bo'lib, ikkovi bir vaqtda topilgan va bitigining nashri va tarjimalari Kulteginniki bilan birga amalga oshirilgan. Faqat S.E Malov alohida, lekin boshqa bitiglar bilan birga nashr qilgan.

**“So'zimni tugal eshit!”** Bilga xoqonning og'a-inilariga, farzandlariga, xalqiga, beklariga murojaati ana shunday. “So'z” - epik voqeа uch qismdan tashkil topgan:

1. Bilga xoqon qayerda va kimlar bilan jang qilgani tasviri;
2. Turli qavmlar bilan urushish, muloqotda bo'lismaydi, yarashish jarayoninida to'plagan hayotiy tajribalar va ularni “so'z”ni eshituvchilarga bayon etish. Bu qisdagi g'oyaviy xulosani xalqni birlashishga, o'z xoqoni atrofida jipslashishga da'vat tashkil etadi. Bilga xoqon xalq ana shu maqsadga erishishsa, u och bo'lmaydi, farovon yashaydi, deb uqtiradi.
3. Tabg'ach xoqonidan tosh yo'nuvchi va toshga yozuvchi usta keltirib, mangu yodgorlik tiklagani tasvirlangan.

Bilga xoqon butparastlar bu yodgorlikni sig'inish belgisi deb tushunishsa, yanglishadilar, deb ta`kidlaydi. U budda sanami emas, balki turkiylar tarixi bitilgan boqiy yodgorlik ekanligini uqtiradi. Kichik va katta bitikdagi epik voqelik bir-biri bilan mantiqan bog'lanadi. Kichik yozuvdagи “ne-ne so'zim esa mangu toshga urdim” kabi satrlardagi “so'z”ning javobi katta yozuvda o'z ifodasini topadi.

Ta`kidlanganidek, bitigtoshda asosan, Bilga xoqonning bahodirlik ishlari tasvirlangan. Shu sababdan ham bitigtoshda harbiy sohaga oid bo'lgan so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi. Shunisi qiziqarlichi, so'zlarning aksariyati aynan

takrorlanmaydi, balki ular ba`zi o'rirlarda sinonimlari bilan ifodalanadi. Bu jihat o'sha davrdagi til imkoniyatlari holatidan darak beradi.

*Yeti yigirmi yasima Tangut topa suladim* -o'n yetti yoshimda Tangutga lashkar tortdim . *Suladim* so'zi lashkar tortdim tarzida tarjima qilingan. Qadimgi turkiy tilda *su* lashkar degani, mazkur fe'l aynan shu so'zdan yasalgan. O'zbek tilining izohli lug'atida *lashkar tortmoq* so'ziga shunday izoh berilgan: Lashkar tortmoq-qo'shin bilan hujumga bormoq<sup>12</sup>. ( 491-b) Bitigtoshning boshqa bir o'rnida shu ma`noda boshqa so'zning ishlatilganini uchratamiz: *Ol yilqa Turgas tapa Altün yišig aşa Ertiš □güzug käša y□ridim*.-O'sha yilda Turgash tomonga Oltun yishni oshib Ertish daryosini kechib, yurish qildim. Bu o'rinda ham lashkar tortmoq birikmasining ma`nosini beruvchi **y□ridim** so'zi ya`ni yurish qildim so'zi ishlatilgan. Ular aynan o'xshamasa ham, ma`no jihatdan bir-biriga yaqin harbiy sohaga oid so'zlardir. Bitigtoshda yana harbiy sohaga oid bo'lган ko'plab so'zlarni, birikmalarni ko'rish mumkin:

*Tangut bodunuğ buzдум □ğlin, yü(tuz)in, yilqisın, barimin anta altim.* Tangut xalqini yengdim, o'g'lini, xonumonini, yilqisini, molini o'shanda oldim. Qadimda ajdodlarimizning badavlatligi ularning moli bilan o'lchangan, ayniqsa, chorvador xalqlarda yilqilar katta ahamiyatga ega hisoblangan. Janglarda qo'li baland kelgan taraf yengilgan xalqning bor-yo'g'ini, yilqilarini olib qo'yadigan bo'lgan.

**Yilqi-** bu ot qadimgi turkiy tildagi "bir joyga to'pla" ma`nosini anglatgan - *yil-* fe`lidan – *qi* qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida *i* unlilarining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan: *yil-qi=yilqi>yilki*. Bu ot asli keng o'tloqda erkin harakatlanib yuruvchi hayvonlar ma`nosini anglatgan; ma`noda torayish voqe bo'lib, otlar podasi ma`nosini anglata boshlagan.

*Susin anta □lurtim Qırqız-* Lashkarini o'shanda qirdim, *bodunug uda basdim-* qirqiz xalqini uyquda bosdim, *tangut bodunuğ buzdam* - Tangut xalqini yengdim. Har uchala gapda bir-biriga yaqin ma`noli so'zlar qo'llanilgan. Biroq

<sup>12</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati, 5 jildlik, 2-jild T-2006

aynan bir xilda emas, yuqorida ta`kidlanganidek, turli xil ko`rinishlarda ishlatilgan. Qirmoq, bosmoq, yengmoq so`zlari umumiy g`alaba qilmoq ma`nosini beradi. Shu jihatdan ularni ma`nodosh so`zlar ham deyish mumkin.

*Oza yänyä käligmä susin ağıttim.- ...ilgarilab biznikini parokanda qilib keladigan lashkarini qaytardim. Yanya-* yany-yay fe`lining qadimgi ko`rinishi bo`lib, yoymoq, parokanda qilmoq degan ma`nolarni bildiradi. O'zbek tilining izohli lug'atida parokanda so`zi *turli tomonga tarqagan, tartibsiz, tarqoq* deb izohlangan.

### **2.3. O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida zoonimlar**

O'zbek xalqining kundalik hayotida jonivorlar juda katta ahamiyatga ega. Qadimgi turkiy xalqlarda ham jonivorlarni muqaddas bilishgan, ularga e`tiqod qilishgan. Aynan shu sababdan bo`lsa kerak, tilimizda hayvon nomlari bilan bog'liq bo'lган iboralar, so`zlar ko`pchilikni tashkil qiladi.

Qadimgi xalqlarda hayvonlarning turiga qarab, xalqning ijtimoiy ahvoli belgilangan. Turkiy xalqlarning eng qadimgi yozma obidalari sifatida qaraladigan O'rxun-Enasoy obidalarida hayvon nomlarining ishlatilishi shu jihatdan katta ahamiyatga ega. Mazkur bitiktoshlarda zoonimlar hajman ko`pchilikni tashkil etmasa-da, ular orqali anglashilayotgan ma`nolar o'sha davr xalqi hayoti, ijtimoiy ahvolini yoritishda muhim hisoblanadi. Ba`zi o`rinlarda bitiktoshlarda jonivorlar nomlari bugungi ma`nosiga aynan o'xshamaydi. Masalan, Kultegin va Bilgaxoqon bitiktoshlarida “*Tə̄ğu baliq*” degan iboralar ko`p qo'llangan. Ammo bu o`rinlarda *baliq* so`zi hayvon nomi sifatida emas, balki *shahar, qal'a* ma`nolarida ishlatilgan. To`nyuquq bitigtoshida ham bunday holatlar uchraydi, biroq To`nyuquq bitigtoshida hayvon nomlari nisbatan xalqning ijtimoiy ahvoli, aholining ma`rifiy holatini ifodalash uchun qo'llanilgan. Quyida shular haqida fikr yuritamiz.

*Bilsar, samiz buqa, turuq buqa tayin bilmäz ärmış. Täyin anche saqintim.*(To`nyuquq 6)<sup>13</sup>- Birov turuq buqa bilan semiz buqani tezagidan bilsa, birov bu semiz buqa bu turuq buqa deya bilmas emish.

---

<sup>13</sup> Bitiktoshlarda matn transkripsiyalari tushinishga qulay bo'lishi uchun raqamlar bilan belgilangan

Parcha Tonyuquq tilidan aytilgan, unda har yerga tarqagan turk xalqidan 700 kishi birlashgani, ular orasida aqliy yuksaklari va ko'p narsani ajrata olmaydiganlari ham bor, mazmuni oydinlashadi. Ya`ni parchada to'g'ridan to'g'ri semiz buqa yoki turuq buqani farqlash ma`nosidan tashqari o'xshatish ma`nosi ham qo'llanilgan.

*Kayak yayu, tabisqan yayu olurur ärtimiz, bodun bogzi toq ärti.* (Tonyuquq 8) - Kiyik yeb, tovushqan yeb kun kechirar edik, xalqning bo'g'zi to'q edi.

Tonyuquq sharofati bilan xalq yana to'planadi. Ko'plab yerlarga yurish qiladi, g'alaba qozonadi. Xalq yana to'kin hayot kechira boshlaydi. Bu o'rinda kiyik va tovushqon so'zлari xalqning ijtimoiy ahvolini ifodalash uchun ishlatilgan. Bizga ma'lumki, kiyik go'shti qimmatbaho hisoblanadi.

Demak, o'sha davrlarda ham kiyik go'shti noyob hisoblangan va uni yuqori tabaqa vakillari yoki siyosiy kuch-qudratga ega bo'lган aholi iste'mol qilgan.

**Kiyik** –“ohu” . Qadimgi turkiy tilda shunday ma`noni anglatgan ot asli **kadik** tarzida talaffuz qilingan, keyinchalik **a** unlisi **e** unlisiga, **d** undoshi **z** undoshiga va bu undosh **y** undoshiga, oxiri **e** unlisi **i** unlisiga almashgan: *kadik>kazik>kezik>keyik>kiyik*<sup>14</sup>.

Qadimgi turkiy tilda “ohu” ma`nosini anglatuvchi **keyik** so'zidan tashqari, yovvoyi ma`nosini anglatuvchi **kayik** so'zi ham mavjud bo`lgan va bu so'z ham keyinchalik **kiyik** tarzida talaffuz qilinib ketgan.

**Tovushqon** so'zi esa o'zbek tilining izohli lug'atida quyon deb izoh berilgan.

Turkiy xalqlar qadimdan otlarga mehr qo'ygan. Otlarni aqlli jonivor sifatida e`zozlashgan. Bu kabi qarashlarni zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham uchratish mumkin. Unda qayd etilishicha, o'sha davrda ot bilan bog'liq bo'lган rasm-rusmlar ko'pchilkni tashkil etgan. Bu jihat er yigitlarning kuch-g'ayratini sinovdan o'tkazishida ham ahamiyatli bo'lган. Masalan:

**Lagamzadan**- otga suulik solish, *zin zadan*-otni egarlash kabi dasturlar aynan ot bilan bog'liq bo'lган. O'g'il bolalar 17 yoshida mana shu kabi hunarlarni

<sup>14</sup> O'zbek tilining etimologik lug'ati. Sh. Rahmatullayev T-2000

qanchalik o'zlashtirishgani yuzasidan sinovdan o'tishgan. Bu esa er yigitlarning hayotida muhim bosqich sanalgan.

*Otundim, su yuritdim, atlat, tадim. Aq tärmäl käča ograqlatdim, at üiza binturä qariğ s□kdim, yoqaru at yätä yadağin, iğač tutüni agturdim, oñcaki ar.-* (Tonyuquq 25) O'tindim, lashkarni yo'lga soldim, ot sol dedim. Aq tarmalni kechib ildam yo'lladim, otga mindirib qorni kechdim.

*Ol sub q□di bardimiz, sanaǵali tušurtimiz. Atiǵ iqa bäyur ärtimiz, kün yämä yalu bardimiz.* (To`nyuquq 27) o'sha suvning quyi tomoniga bordik, lashkarni sanagali tushirdik, otni butalarga boyladik.

**От** – “yirik ish -ulov hayvoni”

Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma`noni anglatgan bu so'z *at* tarzida talaffuz qilingan. Mahmud Qashg'ariy bu so`zni “qattiq talaffuz qilinadigan alif bilan” deb alohida ta`kidlaydi. (Devon I. 70b) o'zbek tilida **а** unlisi **а** unlisiga almashgan: *at>at*

Ot ko'plab turkiy yodnomalarda qayd qilinganini uchratamiz. Masalan, «Alpomish», «Manas», «Qo'rqu ota kitobi»da ot yaxshilik belgisi, qahramonning eng yaqin safdoshi va do'sti sifatida shakllangan. O'rxun yodnomasidagi Kulteginning Bo'z oti ham shunday belgilardan hisoblanadi.

*Naň yilsig̊ bodunqa olurmadi...* (Kultegin 26) mol yilqili xalqqa (xoqon) bo'lmadim.

Bu o'rinda ham *yilqi* so'zi orqali xalqning ahvoli, ijtimoiy holati aks etgan.

Yilqilari ko'p xalq o'ziga to'q bo'lgan, parchada Bilga xoqonning mol-mulki bor xalqqa xoqon bo'limgani aksincha, hech vaqosi yo'q xalqqa xoqon bo'lGANI, ularni oyoqqa qo'ygani aytildi.

**Yilqi**-otlar podasi

Bu ot qadimgi turkiy tildagi “bir joyga to'pla” ma`nosini anglatgan *yilfe`lidan -qi* qo'shimchasi bilan yasalgan. O'zbek tilida i unlilarining qattiqlik belgisi yo'qolgan. *Yilqi-yilqi*

Bu ot asli, keng o'tloqda erkin harakatlanib yuruvchi hayvonlar ma`nosini anglatgan; ma`noda torayish voqe bo'lib, "otlar podasi" ma`nosini anglata boshlagan.

Bitiktoshlarda bo'ri totemi ham keng ishlatalgan.

**Bo'ri** qadimdan barcha turkiy xalqlarning totemidir. Ashin urug'i o'zlarini bo'ridan tarqalgan deb hisoblashlari to'g'risida afsonalar mavjud. «Alpomish»da Boybo'ri, «Qo'rquqt ota kitobi»da Boybo'rak obrazlarining yaratilishi, «O'g'uznama»da bo'ri turkiy qavmlarni boshlovchi asosiy qahramon darajasiga ko'tarilishi qadimiy e'tiqodlar ifodasidir. Enasoy yodnomalaridagi **Chuchuk Bo'ri Sangun** ismi ham totemlik belgisi bo'lib, u qadimgi turkiy dostonlar bilan yodnomalar o'rtasidagi yaqinlikni ko'rsatadi.

#### 2.4. Qadimgi turkiy obidalarda etnonimlar

Tarix charxpalagi aylanishda davom etib, bir nuqta, bir manzilga takror-takror duch kelganidek, Markaziy Osiyo qavmlarining Idil(Volga) daryosini muttasil ravishda kechib o'tib, g'arba tomon siljishgani va Shimoliy Kavkaz-Shimoliy Qora dengiz havzalari bo'ylab Sharqiy Yevropa tuproqlarida o'zlari uchun yangi maskanlar barpo qilishgani tarix sahifalaridan ma'lum. Bu harakat miloddan oldingi mingyillikning o'rtalarida yunon va eron manbalarida skif yoki sak(shak) shaklida tilga olingan Markaziy Osiyolik qavmlar Qora dengizning shimoliy sohillarida paydo bo'lishgani-yu, uning ortidan milodning IV-V asrlarida son-sanoqsiz xunn otliqlarining Sharqiy Yevropani oshib o'tib, ushbu qit'aning markaziy hududlariga qadam qo'yishganida yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Buyuk turk xoqonligi tashkil topishi arafasida ham, xoqonlik tarix sahnasidan tushgandan keyin ham Markaziy Osiyodan chiqqan qavmlarning Kavkaz orqali g'arba-Sharqiy Yevropaga, yana shu yo'nalishdan janubi-g'arba-Old Osiyo o'lkalariga intilishi davom etdi. Aslan turkiy xalqlarga mansub yoki yaqin qondosh bo'lgan, keyinchalik Sharqiy Yevropadagi yangi yurtlarda turli el-elatlar bilan aralashib ketgan bulg'orlar, majorlar(vengerlar), avarlar, xazarlar buning yorqin misolidir. Yana avar-xunn, savir, uturgur(o'ttiz o'g'uz), pecheneg, quman, o'z turk

singari qancha- qanchalab turkiy urug'larning Markaziy Osiyodan chiqib, Sharqiy Yevropa dashtlarini maskan tutishgani va bu yerlarda o`zlarining davlatlarini barpo qilishgani ilk o'rta asrlarga taalluqli Vizantiya, arman va suryoniy manbalarida qayd etiladi.

Qadimgi turkiy obidalarga nazar tashlasak, aynan mana shunday holatlarni uchratamiz. Sarkardalarning bahodirliklari bilan bir qatorda tarixan turli qabila va elatlarning harakati va holati borasidagi qarashlar bizning e'tiborimizni tortadi. Turkiy urug'larning birgalikda hayot kechirgani bizga ma'lum. Ammo turli sabablarga ko'ra yer yuzining turli chekkalariga borib qolgan ko'plab urug' va qabilalar aylanib kelganda bir shajara, bir ildizga oidligi oydinlashganday bo'ladi.

O'rxun va Enasoy obidalarining matni bilan tanishar ekanmiz, ularda bir qancha xalqlarning nomi tilga olinganining guvohi bo'lamiz. Mazkur elatlar, qabila va turli xalq vakillari haqidagi qiziqarli ma'lumotlar tarixan qadimgi turkiy obidalarning hali o'rganilishi kerak bo'lgan qirralarining ancha ekanligini ko'rsatadi.

**Turk xalqi-** VI asr o'rtalarida Oltoy va Janubiy Sibirda yashagan turkiy qabilalarni birlashtirgan yangi davlat vujudga keldi. Bu davlat turk xoqonligi deb ataldi. VI asrning 70-80 yillarida Enasoyning yuqori oqimidan to Amudaryo bo'ylarigacha, Manchjuriyadan to Kimmeriy (Qora dengiz) Bosforigacha cho'zilgan ulkan maydonda Turk xoqonligi markazlashdi. Xoqonlik qancha katta bo'lmasin chinakam markazlashgan davlat emas edi. Uning asosi turkiy tilda so'zlashuvchi qabilalar ittifoqidan iborat bo'lgan. Uning aholisi ikki qismga bo'linardi: ko'chmanchi chorvador va o'troq dehqon aholi.

Ko'chmanchi chorvador aholi "**Budun**" yoki "**Qora budun**" nomlari bilan yuritilgan. Budun esa o'z navbatida qabilalar ittifoqi birlashmasini tashkil etardi. Masalan, "o'n o'q budun" kabi. ( qarang, Tonyuquq 30) "o'n o'q budun" yoki "o'n o'q el"ning hokimini "**Yabğu**", "**Jabğu**" deb atashgan. Turk xoqonlari mamlakatning o'troq aholi yashaydigan obod viloyatlarini ko'chmanchilar ixtiyoriga topshirsalar-da, ammo aholining ichki hayotiga deyarli aralashmagan. Turk xoqonligi turli-tuman turkiy qabilalarni kuch bilan birlashtirish natijasida

tuzilganligi bizga ma`lum. Shu sababdan ham turk xalqi va boshqa qo'shni xalqlarning tillari o'zaro juda o'xshash bo`lgan. Turk xalqining asosiy mashg'uloti chorvachilik bo'lgan va doimo ko'chib yurgan. Yilqichilik va tuyachilik muhim o'ringa ega edi. Chorvador ko'chmanchilar orasida mulkdorlar va ularning xizmatida esa ko'plab qul, cho'ri va xizmatkorlar bo'lgan. Mulkdorlarning eng yirigi xoqonning o'zi hisoblangan. Xalq chorvachilikdan tashqari dehqonchilik va hunarmandchilik bilan ham shug'ullanishgan. Dehqonchilikda asosan don ekinlari: bug'doy, arpa, sholi va tariq ekilgan. Shuningdek ayrim xalq vakillari paxta, beda ekish, bog'dorchilik va uy hayvonlarini boqish bilan shug'ullangan. Hunarmandchilikda esa sarrojlik, ya`ni egar-jabduq yasash ancha-muncha rivoj topgan. Turk xalqi ko'k turk xatidan foydalanishgan. Bu xat yog'och va toshga o'yib yozish uchun nihoyatda qulay bo'lgan. ( Kultegin, Bilgaxoqon bitiglari)

**Sog'daq-** (Kultegin 39) *Soğdaq bodun atäyin täyin, Yinču □kuzug keče tämir qapiğqa tägi suladimiz* -Sug'daq xalqini tuzatayin deb, Yinchu (sir) daryoni kechib Temir qapiqqacha lashkar torttik- ba`zan mazkur so'zda o o'rnida u tovushi ham ishlatilgan. Qadimgi sug'd, hatto hozirgi tojik, qobuliy, forsiy va turkiy tillarda o emas, u bo'ladi. Sug'daqni Mahmud Qashg'ariy quyidagicha izohlaydi: "Sug'daq Balasog'unda o'rnashgan bir xalq. Ular Buxoro bilan Samarqand oralig'idagi Sug'ddandirlar. Biroq ular turklarning kiyim-kechagini qabul qilganlar va ularning urf-odatini o'zlashtirganlar." Sug'daqning asli sug'dcha sug'diq (sug'diy-sug'dli) dandir. Hozirgi tojik tilidagi sifat yasovchi -iy qadimgi turkiy tilda -iq, -ig' shakllarida bo'lgan.

**Barchakar-** ( Kultegin 52 ) *Quriya kun batsiqdaqi Soğd bärçakar, Buqaraq ulus bodinta Naň sangun oğul tarqan kälti.* -Janubda kunbotardagi Sug'd, barchakar, Buqaraq ulus xalqidan Nang sangun, O'g'ul taxxon keldi. Barchakar dastlab barchalar deb ham o'qilgan. S .G. Klyashtorniy barchalar variantini ma`qul ko'radi va Sog'd barchalarni "Sug'd muhojirlari" degan ma`noda izohlaydi. Uningcha, -lar ko`plik qoshimchasi, *barcha* esa sug'dcha *paracha* (tashlab ketgan)dandir. V. Tomsen buni forslarning turkiy nomi bo'lsa kerak deb taxmin qiladi va bitigda xalq nomlarida –lar qo'llanmasligini hisobga olib, uni *barchakar*

deb o'qigan. I. Markvar buning asli *parsakar* bo'lib, u sug'd otashparastlarini bildirsa kerak degan.

**Buqaraq-** ( Kultegin 52) *Quriya kün batsiqdaqi Soğd barčakar, Buqaraq ulus bodinta Naň sangun oğul tarqan kälti.* -Janubda kunbotardagi Sug'd, barchakar, Buqaraq ulus xalqidan Nang sangun, O'g'ul taxxon keldi. Oldin Buqaraq ulusni Buxoro xalqi yoki o'lkasi deb tushinilar edi. Hozir esa Buqaraq Buxoro emas, buxoroliklar (sog'daq singari) va bitigdagи *Buqaraq ulus* buxoroliklar shahri degan ma`noda bo'lib, u Talasga nisbatan aytilgan, chunki VI asrdayoq u yerga buxoroliklar borib o'rnashgan edi.

**Qarluq xalqi**-(Kultegin 41) *Kultegin yeti □tuz yashina Qarluq bodun ärir barur arkalı yägi bolti.* -Kul tegin 27 yoshida Qarluq xalqi begonalashib ketgach, dushman bo'ldi. Qarluqlar Qadimgi Oltoyning g'arbida, so'ngra Irtish daryosining o'rta oqimida yashagan. Ular qadimgi turkiy qabilalardan biri. VI-VII asrlarda turk xoqonligi tarkibiga kirgan.

**Apar-** (Kultegin 11) Tabğač, Tubut, Apar...- avar deb taxmin qilinadi. VI asrda Dunay bo'yalarida avar xoqonligi tashkil topgan. Avar xalqi qo'shni davlatlarga tez-tez yurish qilib turgan. Turkiy tilda gaplashuvchi xalqlardan biri.

**Tabg`ach-** qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda xitoy eli, yurtini Tabğač- (*Tawğac*), Tabg'ach eli atalgan, xitoy xoqoni-*tabğač qağan*, xitoy xalqi esa-*tabğač bodun*, xitoy tilini *tabğač tili* deyilgan.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, turkiy va turkiy bo'limgan urug' va qabilalar nomlarini aniqlash, ularni leksik-semantik tomondan tahlil qilish juda qiyin vazifadir. Chunki buning uchun etimologik kuzatishlar olib borish talab qilinadi. Turkiy va turkiy bo'limgan urug'-qabilalar to'g'risida ilk ma'lumotlar M.Koshg'ariyning "Devoni"da o'z ifodasini topgani bizga ma'lum. Uning ta'kidlashicha o'g'uzlar turklarning bir qabilasi bo'lib, ular ikki urug'dir. Har bir urug' o'z mollariga ma'lum bir tamg'ani qo'yganlar<sup>15</sup>. Ana shu o'zlari qabul qilgan

---

1. <sup>15</sup> Azimov I, Rahmatov M "Qadimgi turkiy til" T-2005;

tamg'alar asosida urug' nomlarini ataganlar. Demak, bundan kelib chiqadiki, qadimgi davrlarda har bir urug' va qabilaning o'ziga xos tug'i (bayrog'i) bo'lgan, shu bayroqqa qo'yilgan belgi ham o'sha urug' yoki qabilani nomlab kelgan.

## 2.5. Bitigtoshlarda ishlatilgan toponimlar

Yozma obidalarda anchagina joy nomlari uchraydi. Mazkur toponimlar o'sha davrlarda yashagan turkiy xalqlarning kundalik moddiy, madaniy turmushi, ularning qayerlarda istiqomat qilganliklari, kasb-hunari, etnik tarkibi haqida ma'lumot beradi. Qadimgi turkiy tilda quyidagi toponimlar uchraydi: *Tämir qapıq*, *Etukan yiš*, *Tabğač*, *Mägi Qorğan* va boshqalar. Ayrim toponimlar narsabuyumlarning tusiga qarab qo'yilgan. Masalan, *atlıq* (Tonyuquq).

Turkiy tillarda so'z yasalishining analitik usuli ham amal qilgani ma'lum. Bunday usul bilan yasalgan so'zlar yodgorliklar tilida keng qo'llaniladi. Bu usulda yasalgan so'zlar qo'shma so'zlar hisoblanib, ko'k turk bitiglarida qo'shma so'z holida yasalgan yer otlari, daryo va ko'l otlari ham uchraydi.

*Temir qapıq*, *Yinčü Ӯгүз* kabi. Qo'shma so'z holida yasalgan toponimlar ko'proq joy nomini bildiruvchi so'zlardan tuzilgan bo'ladi. Masalan, “*Čüg ay quzin Qara qumüg olurur artimiz*”- (Tonyuquq 7)- Chug'ay quzni va Qoraqumni manzil qilib olgan edik. **Chug'ay**-hozirgi Inshan: Qoraqum-Inshan shimolidagi cho'l vohalaridan biri.

Kultegin bitigtoshi matnini o'rghanish jarayonida uning yurish qilgan joylarning nomlarini, xalqlarning nomlarini keltirganligining guvohi bo'lamiz. Kulteginning ko'rsatgan jasoratlari, qilgan qahramonliklari akasi Bilga xoqon tilidan hikoya qilinadi. Jumladan, bitigtoshning muqaddima qismida Bilga xoqonning yurish qilgan joylari shunday tasvirlanadi: “*Ilgaru Santung yaziqa tägi suladim, Tuputka kičik tagmadim, quriğaru Yincu Ӯгузгаča Tamir qapıqqa tagi suladim, yırğaru Yer Bayirqu yaringa tagi suladim, bunča yerka tagi yoritdim*”, ya'ni Shimolga Shantung cho'ligacha lashkar tortdim, dengizga biroz yetmadim, janubga To'quz arsangacha lashkar tortdim, dengizga biroz yetmadi, g'arbga Inju og'uzni kechib Temir qapiqqacha lashkar tortdim, shimolga Yer Bayirdu yerigacha lashkar

tortdim, shuncha joyga yurish qildim”. Mazkur parchada *Shantung cho’li*, *To’quz arsan*, *Tuput*, *Temir qapig’*, *Yer Bayirdu*, *Inju o’g’uz* toponimlari keltirilgan. Ushbu joy nomlarining ayrimlari hozir ham shu shaklda qo’llanilsa, ayrimlari o’zgargan shaklda qo’llaniladi. Jumladan, Tuput hozirda Tibet shaklida, Inju o’g’uz esa Sirdaryo shaklida ishlatiladi. Temir qapig’ Samarqand Balx yo’lida Shaxrisabzdan 90 km janubda, Boysun tog’i hududlariga to’g’ri keladi va hozirda Buzg’ola guzari tarzida qo’llaniladi. Kultegin bitigtoshida jami bo’lib qirqdan ortiq joy nomlari mavjud.

*K□k ungug y□ğuru, Ötukan yishğaru udüztum. Inigak k□lka Toğlada Öğuz kalti.* (Tonyuquq 15)- ko’k o’ngni yuqorilab O’tukan yishga soldirdim. Inigak ko’lga To’g’ladash o’g’uz keldi. **Yish**-sero’simlik manzilbop tog’ yonbag’ri. **O’tukan**-(Xitoy manbalarida Yu-Tu-Kin) Shimoliy Mo’g’ilstondagi Xangay tog’ tizmasining sharqiy qismidagi o’rmonli o’lka. Mahmud Koshg’ariy O’tukanni Uyg’ur yaqinidagi tatar cho’llaridagi bir joyning nomi desa, L.P.Potapov Tuvaning janubiy qismida bo’lgan deydi.

*Yenču □guzug kaca, Tinsi □ğlu yatiğma, Bangligak tağıg... irtimiz.* (Tonyuquq 44)- Inju o’g’uzni kechib Tinsu o’g’li yotadigan Bangilak tog’ini... quvib bordik. **Yenču □ğuz**- Sirdaryoning o’rta oqimi (sir quyi oqimi). Lug’aviy ma`nosi: inju – marvarid daryo. Xitoycha nomi “Chjen chju xe” inju o’g’uzning aynan tarjimasidir.

Toponimlarning bitigtoshlarda tog’, o’rmonli hududlarni bildirganini ko’ramiz, shuningdek, toponimlarning yana bir turi borki, ular gidrotoponimlar, ya`ni daryo, suv havzalari nomlari hisoblanadi. Qadimgi turkiy tilning lug’at tarkibida gidrotoponimlarni bildiruvchi so’zlar ham anchagina bo’lgan. Bunday gidrotoponimlarga, Irtish, Selenge (Kultegin), Balqashko’l (Tonyuquq) singari nomlarni ko’rsatishimiz mumkin. VI-XIV asrlarda daryo nomlariga o’g’uz so’zi qo’shib ishlatilgan. Ko’l nomlariga ko’l va qod so’zlarini birgalikda ishlatishgan. Umuman, bizga Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk o’rta asrlar o’zaro ixtiloflar, urush va bosqinlar bilangina ma`lum emas. Bu davrda Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o’rtasida madaniy, adabiy aloqalarning rivojlanishi,

ijtimoiy savdo munosabatlarining o'rnatiluviga keng yo'l ochilgan. Ushbu aloqalar ikki mamlakatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti, uluslar birdamligini ta`minlab berdi. Xitoy va Markaziy Osiyo elchilari faoliyati, turk davlatlari o'rtasida kechgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-adabiy aloqalarni o'rganishda ham bitigtoshlarda aks etgan joy nomlari katta qimmatga egadir.

## UMUMIY XULOSALAR

Ko'rib o'tilganidek, qadimgi turkiy til turli xil o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Bu jihatni mazkur tilning grammatik tuzilishi misolida ham ko'rib o'tdik. Qiziqarlısı shundaki, qadimgi turkiy tilga xos xususiyatlarning ko'pchiligi bugungi adabiy tilimiz tarkibida takrorlanadi. Bu esa qadimgi turkiy tilning barcha turkiy tillarning grammatik tuzilishi uchun asos bo'lib xizmat qilganini tasdiqlaydi. Shu qatori qadimgi turkiy tilning takrorga ega bo'limgan alohida xos xususiyatlari ham mavjud bo'lib, bu hodisa o'sha davrdagi sheva va adabiy til iste`moli bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. O'rxun-Enasoy obidalari tili misolida aytadigan bo'lsak, ko'k turk alifbosida <x> harfi bo'limgan. Ammo mazkur harf o'rnida <q> harfi ishlatilganini ko'ramiz, hamda bu orqali bugun adabiy tildagi ko'pchilik so'zlar tarkibidagi harflar tarixan <q>shaklida bo'lib, vaqtlar o'tib <x> tarzida talaffuz qilina boshlaganini bilib olish mumkin. Masalan,qaliq-xalq, yaqsi-yaxshi kabi. Bu jarayon esa qadimgi turkiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini yanada sinchiklab o'rghanish lozimligini ko'rsatadi. Qadimgi turkiy til o'zining leksik xususiyati, so'z boyligi jihatidan ham ajralib turadi. O'rxun-Enasoy va uyg'ur yozuvi bilan bitilgan yodnomalar qadimgi turkiy tilning leksikasi, lug'aviy qatlamlari ancha boy va shakllanganligidan, ma'lum qolipga kelganligidan guvohlik beradi. Qadimgi turkiy til lug'atida bo'lgan so'zlarning asosiy qismini o'sha davrdagi turkiy urug' va qabilalarning tillari uchun umumiyl bo'lgan so'zlar tashkil qiladi. Bu so'zlarning ko'pchiligi turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida ham keng iste`molda bo'lgan.

O'rxun va Enasoy tosh bitiklari adabiy janrlar talablariga ko'ra marsiya va madhiyadir. Shaxsning vafot etganligiga achinish hissi bilan bitilgan satrlar marsiya janrining xususiyatini belgilasa, uning tiriklik paytidagi qahramonlik, bahodirlik, vatanparvarlik fazilatlari ulug'langan satrlar madhiya janri talabi asosida yuzaga kelgan. Enasoy bitiglarida bu ruh yanada kuchli.

Tosh bitiklar asosan erkak kishilar vafotiga bag'ishlangan. Marsiya ham asosan vafot etgan kishining tilidan berilgan. Marsiya turkiy yozma va og'zaki adabiyotda alohida janrdir. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk»

kitobida saqlangan Alp Er To'ogra marsiyasi ham shunday janr namunasidir. U xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi. Lekin marsiyaning O'rxun-Enasoy bitiglaridagi marsiyalardan farqi shundaki, u vafot etgan shaxs tilidan bayon etilmaydi, balki xalq yig'isi hisoblanadi. Turkiy-run yozuvida bitilgan yana ba`zi qadimgi turkiy yodgorliklarda “ming yillik yozuv” to'grisida aytildi. Bu ma`lumotlarning takror-takror qo'llangani shundan dalolat beradiki, qadimgi turkiy til va yozuv “ming yilu tuman kun” amalda bo'lgan edi, deganidir. Demak, turkiy run yozuvi miloddan oldingi asrlarda shakllangan edi, degan bugungi qarashlar VII-VIII asrlardagi bitigtosh mualliflariga ilmiy haqiqat sifatida ma`lum bo'lgan edi. Shuning uchun har ikki yodnomadan yuqorida keltirilgan ma`lumotlar qadimgi turkiy til tarixi to'g'risida asl manba sifatida qaraladi. Bu ma`lumotlar ayni paytda Xitoy yilnomalari, yunon manbalarida bayon qilingan qadimgi turkiy til va yozuv to'g'risidagi ma`lumotlarni tasdiqlaydi. Qadimgi turkiy til va uning leksik qatlami xususidagi mana shunday fikrlarni umumlashtirib, quyidagilarni xulosa qilamiz:

1. Qadimgi turkiy tilda ismlarda egalik, ko'plik, kelishik qo'shimchalari bilan turlanadi. Bugungi ko'pchilik so'zlarda bu qo'shimchalar saqlanib qolgan bo'lsa, ayrimlari katta o'zgarishlar orqali yetib kelgan. Jumladan, -lar ko'plik qo'shimchasining hozirgi tilimizdagi *alplar*, *beklar*, *eshiklar* singari so'zlarda yoki -(a)n ko'plik qo'shimchasining *og'lon*, *yoron* kabi so'zlarda saqlanib qolganini ko'ramiz. Qadimgi turkiylarda ko'plik haqidagi tasavvur boshqacha bo'lgan. Ular ongida individlarning hayotiy umumlashmalari natijasida shakllangan birlik va ko'plik kategoriya tushunchasi mavjud bo'lgan, ammo tilda, ehtimol, farqlar ifodalanmagandir. Qadimgi turkiylar tasavvurida ot so'zi matnga qarab, ot va otlarni ham anglatgan bo'lishi mumkin. Bu holat muayyan darajada hozirgi turkiy tillarda kuzatiladi. Shuningdek, jo'nalish kelishigining -g'aru,-qaru, -karu affikslari bugungi kunda tilimizdagi bir qancha so'zlarda tublashib qolgan. Bunga sabab, ular grammatik ma`nosini yo'qotib, so'zning ajralmas qismiga aylangan va bunday so'zlar yoki yordamchi so'zlar turkumiga o'tgan. Mavjud manbalarning ko'rsatishicha, qadimgi turkiy yodgorliklar tilidayoq bu shakllarning ma`nosi

chegaralangan bo'lib, asosan bir predmetning boshqa predmet tomonga yo'nalishi ma`nosini ifodalagan. Keyingi davrlarda -g'aru//qaru affaksi *tashqari*, *ichkari* kabi so'zlar tarkibida saqlangan bo'lib, bu so'zlar ravish turkumiga o'tgan.

2. Qadimgi turkiy tilda yordamchilar alohida taraqqiyot bosqichiga egadir. Xususan, dastlab yuklamalar alohida so'z turkumi sifatida mavjud bo'limgan, grammatik jihatdan shakllanmagan edi. Yuklamalar vazifasini turli otlar va fe'llar bajargan. Qadimgi turkiy tilda yordamchi so'zlardan aynan yuklamalar bog'lovchilarga qaraganda ancha takomillashgan bo'lib, nisbatan oldinroq so'z turkumiga aylangan edi. Buni biz qadimgi yodgorliklar bo'lmish turkiy yozma obidalar orqali bilib olishimiz mumkin. Yodgorliklar tilida, xususan, yuklamalar tarkibida ham o'zlashmalar mavjud bo'lsa-da, ular tilning o'z ichki imkoniyati hisobiga boyib borgan.

3. Turkiy tillarning turli sabablarga ko'ra aloqa-aratashuv jarayonining yuz berishi qadimgi turkiy tilning grammatik holatiga ham ta'sir qiladi. Qadimgi turkiy davrning birinchi bosqichida tillarning tabaqalanish, guruhanish jarayoni kechgan bo'lsa, ikkinchi davrga kelib, barcha hozirgi turkiy tillar umumiylar tarzda tashkil topadi. Ularning uzil-kesil shakllanishi esa keyingi davrlarga ham to'g'ri keladi. Shuningdek, keyingi davrlarga kelib turkiy tillarga boshqa etnik qatlamlarning ta'siri ham alohida o'rinni egallagan.

4. Jamiyat hayotidagi o'zgarishlar, birinchi navbatda, leksik qatlamda aks etadi. Leksik qatlamning aksariyat qismi esa maishiy leksikaga oidligi ma'lum. Tilga turli so'zlarning yangidan kirib kelishi, tildagi mavjud so'zlarning yangi hodisalarga tadbiq qilinishi o'z navbatida maishiy leksikaga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ayrim so'zlar tildan chiqib ketadi yoki o'zining oldingi ma`nosini yo'qotadi. Bu hodisalar hamisha rivojlanishda, o'zgarishda bo'lgan.

5. Bitigtoshlarning barchasida ham harbiy sohaga oid bo'lgan so'zlar hajmi anchagina. Ular qadimgi ko'k turk xoqonlarining harbiy mahoratlari, jismonan baquvvat, bahodir bo'lganliklari haqida kishiga ma'lum tasavvurlarni beradi. Shu jihatdan ularni o'rganish o'ziga xos izlanishlarni talab qiluvchi mavzulardan biridir.

6. Qadimgi turkiy yodgorliklarning barchasida hayvon nomlariga duch kelamiz. Bu holat birinchidan, qadimgi xalqlarning totemistik qarashlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan hayvonlar tabiatidagi qo'rmaslik, dadillik xalqning ma'naviy hayotiga ta'sir qilgan, ularga o'xshashga harakat qilingan. Shu sababdan ham turkiy bitiklardagi hayvonlar nomlari bilan tanishish turkiy xalqlarning hali ochilmagan e'tiqodlari, rasm-rusmlarini anglab olishimizda katta ahamiyatga egadir.

7. Yozma obidalarda uchraydigan toponimlar, ya`ni joy nomlari shu davr xalqning kundalik moddiy, madaniy turmushi haqida ma'lumot beradi. Toponimlarning turli xil nomlari o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmasdan, o'sha davr aholisining etnik kelib chiqishi va tarqalish hududiga qarab nomlanishi tarixiy ma'lumotlarni ham taqdim qiladi. Shuningdek, toponimlar tadqiqi omonim so'zlar, antonim va qo'shma so'zlar haqidagi bilimlarimizni mustahkamlaydi. Chunki qadimgi turkiy tilga oid ko'plab joy nomlarining tarkibi o'zaro qarama qarshi so'zlardan, qo'shma so'zlardan tashkil topgan.

8. Obidalarda urug' va qabilalar nomlarini aniqlash, ularni leksik-semantik tomondan tahlil qilish juda qiyin vazifadir. Chunki buning uchun etimologik kuzatishlar olib borish talab qilinadi. Kultegin, Bilgaxoqon, Tonyuquq bitiglarida etnonimlarni ajratishda ham etimologik lug'atdan foydalanildi. Toshbitiglarda urug' va qabilalar nomlarini o'rganish orqali ajdodlarimizning yashagan va turkiy qabilalarning tarqalgan hududlari yanada oydinlashadi. Etnonimlarning har bir qabila bayrog'i, ya`ni tug'i asosida nomlanishi esa, qadimgi turkiylarda boshqaruv tizimining yuqori darajada takomillashganidan dalolat beradi.

Demak, runiy yozuvlarning tarixi uzoq, bu yozuvda yaratilgan yozma adabiyot ham shunday qadimiylikka egadir. Lekin mukammal darajadagi toshbitiglar qo'lga kiritilmaganligi sababli yozma davrni miloddan oldingi davrlardan boshlashga hali vaqt erta. Ammo, ko'plab qabrtoshlarning qaysi xonga tegishli ekanligi aniqlanmagan bo'lsa-da, undagi yozuvlarning bundan 2500 yil muqaddam yaratilgani isbotlangan. Run yozuvlari qog'ozga, shuningdek, boshqa buyumlarga ham bitilgan. Masalan, «Irq bitigi» («Ta'birnomा») qog'ozda

yozilgandir. Run yozuvi hozirgi Avliyo ota va Taroz shahri yaqinidagi qoyada, Sibir o'lkasida kumush ko'zachalarda bitilgani kuzatilgan. Shuningdek, qadimshunoslar oyna, qayish to'qasi, idish-tavoq, yog'ochga bitilgan runiy yozuvlarni qo'lga kiritishgan.

Yozma yodgorliklarning topilishi, ularni tadqiqot qilish ishlari juda maroqli. Obidalarning tili masalasi esa ham qiziqarli, ham mas'uliyatli masaladir. Yodgorliklar tilini o'rganar ekansiz, xuddi o'tmishta, ajdodlarimiz davriga qaytgandek bo'lasiz. Shu qatori, O'rxun-Enasoy toshbitiglari lug'aviy birliklarining mavzu doirasi ham keng, demak bundan anglashiladiki qadimgi turkiy til davridanoq o'zbek tili boy tillar sirasida bo'lган. Bu esa o'z o'rнida bizga milliy iftixor hissini beradi.

Turkiy xalqlarning uzoq yillik tarixga ega ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, bu qadimiylar xalqning tarixini yoritadigan manbalar ustida ish olib borish o'z navbatida zarur va shart hamdir. Ayniqsa, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan va texnika zamonida qadimgi obidalarni qayta tiklash, ularni o'rganish ishlarida muommo bo'lmaydi. Demak, bitigtoshlar tadqiqoti hali ko'plab yangiliklar yaratishi hamda fanimiz taraqqiyotini yuqori ko'tarishi mumkin. O'z navbatida, tarixiy obidalarning til xususiyatlarini o'rganish o'sib kelayotgan yosh avlodlarga ta'lim-tarbiya berishda ham qo'l keladi. Chunki, o'quvchilarining qadimiylar tillar, turkiy til haqidagi tasavvurlarini aynan obidalar misolida tushintirish, toshbitiglarning mazmun-mohiyatini yoritib berish yoshlarda vatanga bo'lган sadoqat, vatanparvarlik tuyg'ularining yetilishiga turtki bo'lar edi. Albatta, bunday izlanishlar qadimiylar obidalar yoshini ham bir muncha ilgari davrlarga surib yuborsa ajab emas. Qabrtoshlarda bag'ishlov egasi bo'lган shaxslarning qilgan ishlari, jumladan, turkiy xalqlarni birlashtirish, ichki va tashqi dushmanlarga qarshi kurashdagi xizmatlarga alohida e'tibor beriladi. Tabiiyki, har uchalasida ham dabdabali motam ruhi, yo'qotish izardobi sezilib turadi. Ushbu toshbitiglar birinchi navbatda VI-VIII asrlarda Markaziy Osiyo hududlarida yuz bergen shiddatli tarix voqealarining konkret taqdirlar misolidagi badiiy ifodasidir. Bunday voqealar tarixni yoritguvchi asosiy shamchiroqlardir. Ularni anglash,

teran his qilish o'zligimizni anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Yodgorliklarda aks etgan tarixiy jarayon o'sha davr hayotidan xabar bersa, obidalar tili, leksikasi ajdodlarimizning so'zlashuv uslubi, adabiy til taraqqiyotini belgilab beradi.O'rxun-Enasoy obidalari, bir tomondan xalqimiz hayotining VI-VIII asrdagi murakkab tarixini, adabiy tilini hayajonli va ta'sirchan lavhalarda bizga yetkazib qoldirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular millatning birligini saqlash, uni o'zaro ahillikka da`vat etish vositasi bo'lgan. Mazkur obidalarning tarixiy, ma'rifiy va badiiy qiymatini ana shularda ko'rishimiz mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Karimov. I. A “Inson baxt uchun tug’iladi” –T: Sharq, 2001.-55-b
2. Karimov I.A. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008
3. Koshg’ariy M“Devoni lug’atit-turk” Ankara 1939-1941, I-III qismlar;
4. Koshg’ariy M “Devoni lug’atit- turk”. 1-jild, Toshkent, O’zbekiston FA nashriyoti, 1960;
5. Неделяев В. М“ Чтение Орхено-енисейского знака э и этимология имени Тоньукука...” М-1963;
6. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”// Tanlangan asarlar 1-jild T-Fan, 1968;
7. Кляшторный С.Г “Епоха М.Кашкарского” –СПБ-1972;
8. Кононов Н.А “Грамматика –языка тюркских рунических памятников” Ленинград-1980;
9. Aburahmonov G’, Rustamov A “Qadimgi turkiy til” T-1982;
10. Rahmonov N “O’rxun-Enasoy yodnomalari” T-1987;
11. Нажиб А.Н. “Исследования по истории тюркских языков XI-XIV вв”.- М -1989;
12. Mahmudov N “Yozuv tarixidan qisqacha lug’at-ma’lumotnoma” T-1990;
13. Muxtorov A, Sanaqulov U “O’zbek adabiy tili tarixi” T-1995;
14. Щербак А.М. “Тюркская руника” СПБ-2001;
15. Кляшторный С.Г. “История Центральной Азии и памятники рунического письма” СПБ-2003;
16. Mahmudov N, Rahmonov N “Urxun-Enisey yozuvi” O’zME, T.9, T-2005, 131-132-bet;
17. Azimov I, Rahmatov M “Qadimgi turkiy til” T-2005;
18. Rahmonov N, Matboboyev B “O’zbekistonning ko’hna-run yozuvlari” T- 2006;

19. Sodiqov Q, “Turkiy yozma yodgorliklar tili: adabiy tilning yuzaga kelishi va tiklanishi” T-2006;
20. Гумилев Л.Н. “Древные тюрки”, Т-2007 ;
21. Abdurahmonov G’, Shukurov Sh, Mahmudov Q “O’zbek tilining tarixiy grammatikasi”, T-2008;
22. Rahmonov N, Sodiqov Q “O’zbek tili tarixi” T-2009;
23. Sodiqov Q, Omonov Q “O’zbek tilining yozma uslublari tarixidan” T-2010;
24. Boboyorov G’, “Tun yabg’u-xoqon”, T-2011;
25. Yo’ldoshev R, Primov A, Yo’ldoshev Sh “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi”, Urganch-2012;
26. “Tafakkur” jurnali, 2008-yil 1-son;
27. “Til va adabiyot ta`limi” jurnali 2013-yil 2,8-sonlar;
28. Boturxon Volixo’jayev. “Turkiy adabiyotning qadimiy qatlamlari” Beshinchi qism ([kh.davron.uz](http://kh.davron.uz) sayti elektron versiyasi)


#### **LUG’ATLAR:**

29. Советский энциклопедический словарь. М-1988
- 30.O’zbek tilining etimologik lug’ati. Sh. Rahmatullayev T-2000;
31. O’zbek tilining izohli lug’ati, 5 jildlik, 2-jild T-2006;


## ILOVA:

		УРХУН ЁЗУВИ АЛИФБОСИ	
-	а:	20	т
-	и:	21	ки, ик
-	у:	22	үк, кү
1	Г а	23	ки, ук, ик, үк, кү
2	Г и	24	га, ги, иг, уг
3	Г у	25	ку, ук
4	Н ў	26	ўк, кү
5	ә, аб, ба, би, бу, уб	27	ға, ғи, иғ
6	ә б	28	ма, им, ми
7	ә да, ад, ди, ду, уд	29	аз, из, уз, зи
8	Х д	30	и: ӣ
9	Д ѹа, ай, ѹу	31	анг, инг, ўнг, унг
10	Ғ ӣ	32	ант, унт, нта
11	Ғ ла, ли, ил, ўл, лў, ал, лу, ул	33	лт
12	Ғ л	34	анч, унч, инч
13	Ҥ ан, ин, ун, ўн, ни, на	35	па, ип, пи, уп
14	Ҕ н	36	ча, ач, ўч, чи
15	Ҕ ар, ра, ир, ри, ру, ур, рў	37	аш, иш, ша, уш, ўш
16	Ҕ р	38	ка, қи, ак, ку
17	Ҕ са, си, ис, су, ус, ас		
18	Ҕ с		
19	Ҕ та, ат, ти, ит, ту, ут		



1)




2)



3)



7)



8)

- 1.O’rxun alifbosi;
  - 2,3. Yevroosiyo guruhi alifbosining qiyosiy jadvali;
  3. Nad-Sent-Mikloshdan topilgan xum;
  4. Isfara yozuvi;
  5. To’zbuloq yozuvi;
  6. Runiy alifbi ko’rinishlari;
  7. Tuyoq yodgorligi;